

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI SHARQ
FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TURKIY TILLAR KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: **Turk tilida qo'llaniladigan tabu va evfemizmlar**

Bajardi:5220100–Filologiya (sharq tillari)
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Kuchkarova Nodira
Ilmiy rahbar: Turkiy tillar kafedrasi
dotsenti f.f.n. G. Rihsieva

TOSHKENT- 2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

Sharq filologiyasi va falsafa
fakulteti dekani
f.f.n., dots J.T.Ziyamuhamedov

“_____” _____ 2012yil

Turkiy tillar
kafedrası mudiri
f.f.n., dots Q.SH.Omonov

“_____” _____ 2012yil

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB.TABU VA EVFEMIZMLARNING ILMIY O`RGANILISHI

Tilshunoslikda tabu va evfemizmlarni o`rganishmasalasi

Turk tilshunosligida tabu va evfemizmlarning nomlanishi va atamashunoslikdagi farqliliklar

Tabu va evfemizmlarning qo`llanilishmuhiti

Tabularning mavzulariga ko`ra turlari

II BOB.NUTQDA EVFEMIZMLARNING QO`LLANILISHI

2.1. Evfemizmlarning mohiyati va qo`llanilishi

2.2. Evfemizmlarning mavzu guruhlari

2.2.1“O`lim” temasi bilan bog`liq evfemizmlar

2.2.2 “Kasallik” nomlari bilan bog`liq evfemizmlar

2.3. Difemizmlar va ularning qo`llanilish sohalari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi .

Islom Abdug‘aniyevich Karimov.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, turk tilida evfemizmlarning juda kam o‘rganilganligi, evfemiyaning tilshunoslikning qaysi sohasi, til sathiga oidligi, uning o‘rganish predmeti, tasviriy obyekt haqida aniq fikrlar mavjud emasligidadir. Evfemizm leksik birlik deb qaralganligidan bo‘lsa kerak, u leksikologiya bahsidan o‘rin olgan. Tabu va evfemizmga doir bayonlar “Tilshunoslikka kirish” va “O‘zbek tili stilistikasi” darsliklaridagina bittagina dars hajmida dasturga kiritilgan, xolos.

Umumtilshunoslikdagi tabu va evfemizm haqidagi fikrlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkun. Bular: 1-evfemizm ibtidoiy dunyoqarashli (Tabu) ta’sirida paydo bo‘lib, jamiyatning madaniy bosqichida yo‘q bo‘lib boradi¹; 2-evfemizmlar til fakti, passiv leksik qatlam sifatida mavjud²; 3-evfemizmlar ayni zamonda, nutqiy vosita, uslub uchun ham xizmat qiladi³ deyvuchilar. Bu qarashlar 1963-1964-yillardayoq N.Ismatullayevning “ Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘z aksini topgan. Umuman ushbu masala turkologiyada ma’lum nuqtayi nazardan tekshirish obyekt bo‘lganiga qaramay⁴, uslubshunoslikning tadqiqot obyekt sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan mavzu sifatida qolib kelmoqda.

¹ Кацев А.М. эвфемизмы в современном английском языке: Автореф.дис...д-ра филол.наук.-Л.,1977-19с

² Ергазиева Н.И. Взаимосвязь прозвищ табу и эвфемизмов в казакском языке// Ономастика Узбекистана июль, Ан Уз ССР. – 1989.стр 120

Черкасова Е.Г.О метафорическом употреблении слов// Исследования по языку советских писателей. – М:1959/ - стр 13

³ Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф.дис...канд.филол. наук. Т., 1963.стр.10.

⁴ Ahmetov E.K.Turki tilderindeki tabu men efemizmler: aftoref.dis...d-ra filol.nauk-Almati, G’ ilim.-1995.-62 b.

Tabu va evfemizmlar hanuz turk tilshunosligida chuqur tadqiq qilinmagan, terminalogiyasi shakllantirilmagan mavzulardan biridir. Turkiyada bu mavzuga doir ko'pgina maqolalar yozilgan. G'arb tilshunoslari bilan birgalikda turkiy xalqlar tilshunos olimlari ham bu mavzuda chuqur izlanishlar olib bormoqdalar. Shu o'rinda tabu va evfemizmlar bilan bog'liq tilshunoslik muammolarining yechimidan ko'proq izohlar, atamalar, atamashunoslikka doir muammolar o'rta chiqmoqda.

Faktlar evfemiyaning endi nutqiy qatlam sifatida bir butun holda sistemali o'rganish, uning barcha nutqiy- botiniy imkoniyatlarini ochish namoyon qilish, funksional-uslubiy xususiyatlarini tasvirlash, xususan vazifaviy uslub turlariga nisbatan munosabatlarini yoritish bugungi uslubshunosligimizning eng muhim va dolzarb muammolaridan ekanligini ko'rsatadi. G'. Abdurahmonovning "Endilikga adabiyotshunos va tilshunoslar oldida turgan muhim masalalardan biri adabiy uslub bilan nutq uslublarining umumiy va xususiy tomonlarini ochishdir"⁵ degan fikr ham ushbu mavzuni dolzarbligini ta'kidlaydi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Turk tilida tabu va evfemizmlar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni cheklangan. Umumiytilshunoslikni oladigan bo'lsak, tabu va evfemizmlar ko'pgina turkiy xalqlar tomonidan, xususan qozoq, turkman, oltoy, azerbayjon, o'zbek va rus tilshunos olimlari tarafidan o'rganilgan. Ulardan S.Altayev, N.Ismatullayev, N.M.Jabbarov, V. B. Darbakova kabi tilshunoslarni keltirib o'tishimiz mumkin. Turk tilshunoslaridan K.Demirci, A.Güngör, U.Söylemez kabi tilshunos olimlar turk tilshunosligida nisbatan kam o'rganilgan tabu va evfemizmlarni tadqiqi bilan shug'ullanganlar.

Ishning maqsadi turk tilidagi tabu va evfemizmlarni tahlil qilish, ularni o'zbek tili bilan taqqoslashdan iborat. O'rganish maqsadi aniq vazifalarni yuzaga keltirdi:

⁵Abdurahmonov G'. Hozirgi zamon o'zbek tilining adabiy usullari haqida//O'zbek tili va adabiyoti.1992. – N 5-6, -28-36-b

- Evfemizatsiyaning mohiyatini ko‘rib chiqmoq;
- Taqiqlash ya`ni tabu ko‘rinishidagi evfemizmlarining muhimligini belgilash;
- Turk tilida tabu va evfemizmgga doir terminlarni o‘rganish.

Ishning nazariy asoslari: Bitiruv malakaviy ishi uchun umumiy tilshunoslik hamda turk, o‘zbek va rus tillari leksikalogiyasi sohasiga doir ilmiy tadqiqotlar hamda turkcha izohli lug‘atlar jumladan: A.Ahmedov, K.Demirci, A.Güngör, Özyildirim, H.Bilginer, U.Söylemez A.Gecekuşu, Oyarkılıcgil Ateş, N.Ismatullayevlarning ilmiy nazariy qarashlari asos vazifasini o‘taydi. Ma`lumotlar turkcha va o‘zbekcha lug‘atlardan yaxlit terilgan.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, keyinchalik shu mavzuni o‘rganish mobaynida asosiy nuqtayi nazarlarni va xulosalarni qo‘llash mumkinligi, ishning natijasi turk tilini o‘rganuvchilar uchun tilni yanada chuqurroq bilish imkonini berishi mumkin. Mazkur ishning nazariy xulosalari turk tili evfemiyasini yirik ilmiy-monografik planda (masalan, vazifaviy uslub turlarining evfemiyasi, professional nutq evfemiyasi, noadabiy til vositalari evfemiyasi) kabilarni o‘rganishga yo‘l ochishdan tashqari, umuman, matnshunoslik nazariyasi, uslubshunoslik, til va nutq, nutq madaniyati, so‘z qo‘llash san’ati, badiiy mahorat, tasviriy vositalarni o‘rganish, ularga norma, mezon, chegara belgilash masalalarini tadqiq etish doirasini yanada kengaytirishga yordam beradi. Evfemiyaning alohida soha sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi.

Ish hajmi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

Evfemizm turk tilida “*örtmece*”, “*edeb-i kelam*” va “*öfemizm*” deyiladi. Evfemizm so‘z yoki ibora bo‘lib, ba’zi vaziyatlarda noqulay bo‘lgan yoki qo‘pol, uyatli⁶ bo‘lgan so‘zlarning o‘rniga qo‘llaniladi.

⁶ Ожегов С.И. «Словарь русского языка» М., 1967

Evfemizm – qo‘pol yoki dag‘al so‘z va iboralarni nisbatan yumshoq ifoda etadi. Evfemizm har xil noto‘g‘ri tushunchalar, irim-sirim, diniy e‘tiqodlarni bekitishda o‘rab turgan dunyo hodisalari, aniq bir belgilangan narsalarni nomi bilan bekitishda leksik taqiqlarni natijasini, nima oqibatida inson kinoyali iboralarini qo‘llashini bildiradi. Boshqacha aytganda; aytish uyat, eshitilishi qo‘rqinchli, xavfli, noxush deb hisoblangan, insonda yomon his-tuyg‘ular uyg‘otadigan narsa-hodisa yumshoq, muloyim, yoqimli, erkalovchi, beozor, chiroyli ma‘no-mazmun ifodalovchi so‘z va iboralar (evfemizm) almashtirib aytilgan. Masalan: chayon - kajdum (gajdum), eshak, nomi yo‘q; ilon – arg‘amchi, arqon, olachilvir, qamchin, o‘rmalovchi, gazanda; biy – qurt, qoraqurt, g‘unga, qorag‘unda, alog‘unda; ayiq– polvon, o‘rmon xo‘jayini, asalxo‘r; bo‘ri – jondor; cho‘chqa – qorakiyk; it – vafodor; qizamiq – gul, chechak; vabo – oyin; pes – oq; mohov – buzilgan; kasal– betob bo‘libdi, tobi qochibti, uchinibdi; jinni – pari, xola, momo; jinni bo‘libdi – o‘zgaribdi, aynibdi, layli bo‘libdi, mashrab bo‘libdi, to‘qson to‘qqiz bo‘lib qolibdi; o‘ldi – vafot etdi, olamdan ko‘z yumdi, qazo qildi; o‘lgan kishi – rahmatli, marhum; tug‘moqni – ko‘zi yormoq, qutilib olmoq, bo‘shab olmoq va boshqalar.

V. B. Darbakova qadimgi mongollar tog‘lar, g‘orlar kamarlar bekorga yerdan baland qilib yaratilmagan. Ular yerni ushlab turuvchi ustunlar (bu g‘oya “Qur‘on”da ham bor), yani ulug‘ joylar sifatida muqaddaslashtirganliklarini, shu tufayli uning o‘rmonlarini kesish, hayvonlarini o‘ldirish yomonlik keltiradi deb tushunganliklarini, hattoki, tog‘larni nomlari tilga olinmaganligini (agar u ko‘rinmasa shivirlab gapirilgan), ular joylashgan o‘rniga qarab: Shimoliy tog‘, Sharqiy tog‘, G‘arbiy tog‘, Janubiy tog‘; biror belgi xususiyatiga qarab: Ko‘ktov, Alatov, Oltintov, Kumushtov, Sirlitov, Balandtov, Qirlitov, Yetimtov kabi nomlar bilan, keyinchalik shaxs nomlari bilan ataganliklarini yozgan.⁷

N. A. Baskakov ham V. P. Darbakova ham ba‘zi oltoy xalqlarida tog‘ nomlari tabulashtirilganligi masalan, Ayiq tog‘ iborasi o‘rnida Abay Kabi – Atta aka, Aba

⁷ Дарбакова В.П. Онономия. МНР, “Ономастика”. – М.: Наука.- 1969. с.199-200

Kaan – Akaxon, Otaxon (bunda ayiq so‘zi katta aka, ota) so‘zlari qo‘llanilganligini qayd qilgan⁸.

Ushbu ishda biz evfemizmlarning taqiq natijalarini holatini turk tilining belgilangan tushunchalari bilan bekitishini o‘rganamiz. Birinchi bo‘limda evfemizmlarning o‘zbek tili misolida qanday ketishi haqida gap ketadi. Ikkinchi bo‘limda turk tiliga hos bo‘lgan evfemizmlarning jihatlari va qo‘llanilishi ko‘rsatiladi.

Ushbu mavzu bo‘yicha ma‘lumot yetarli emasligi va bu mavzu kam o‘rganilganligi sababli, biz evfemizmlarning ichiga kiruvchi difemizmlarni ham tadqiqot doirasiga kiritdik, shuningdek evfemizmning turk tili leksikada sodir bo‘ladigan ba‘zi ko‘rinishlarini, ya‘ni o‘lim va kasallik bilan bog‘liq evfemizmlarni o‘rgandik.

Taqiqlash, irim-sirim, asosida o‘lim, kasallik kabilarni ifodalovchi evfemizmlar vujudga keladi. Masalan, “o‘ldi” so‘zining o‘rniga “Ajodlari oldiga yo‘l oldi”, “Qalbini Xudoga berdi”, “Uzoq yashashni buyurdi” kabilar qo‘llaniladi.⁹

Rivojlangan jamiyatda evfemizmlar vujudga kelishining asosiy sabablari odob-axloq qoidalariga zid bo‘lgan, qo‘pol yoki uyatli so‘zlar va iboralarni qo‘llashdan hadiksirashdir. Shunday qilib, “Siz aldayapsiz”ni o‘rniga “Siz to‘qiyapsiz” deyiladi. Shifokorlar ko‘pincha lotincha kasallik atamalarga murojaat qiladi yoki maxsus meditsina atamalarini qo‘llaydilar: “saraton” kasalligi o‘rniga *cancer*, “sil” kasalligi o‘rniga *tbc*, “o‘ladi” ni o‘rniga *o‘limga olib boradi* deydi. Ba‘zida so‘kish, jargon kabi so‘zlarga nisbatan kamroq salbiy ma‘no beruvchi so‘zlar qo‘llaniladi. Garchi ko‘pchilik paytlarda evfemizmlardan yoki matn ma‘nosidan qaysi so‘zni o‘rniga qo‘llanilayotganini belgilasa ham, evfemizmlarni qo‘llashda sezilarli darajada matnlardagi qo‘pol so‘zlardagi salbiy ma‘nosini yumshatadi.

⁸ Баскаков Н.А. Принципы выбора признаков для наименования гор у алтайцев/Исследование по восточной филологии.- М.: 1974. –с.23

⁹ Begmatov E.A. Nomi va odamlar.- T.:Fan, 1966.36b.

I bob Tabu va evfemizmlarning ilmiy o'rganilishi.

1.1. Tilshunoslikda tabu va evfemizmlarni o'rganish masalasi

Tabu insoniyatning yozilmagan eng qadimiy qonuni sifatida taqiqlar vositasida paydo bo'lgan. Bu terminni ilk bor ingliz kapitani J. Kook 1777- yilda qo'llagan. Polinezya tilidagi ma'nosi asli "tapu", ta: (ishoratlamoq, belgilamoq) va pu: (diqqatni tortuvchi, insonni chalg'ituvchi) deganidir. Turk olimi, tilshunosi Abdulkadir Inan "tabu" termini sifatida "tekinsiz" so'zini qo'llagan. Lekin ushbu malakaviy ishimizda dunyo tillari va adabiyotida keng ravishda qo'llaniluvchi "tabu" atamasini qo'llaymiz.

Tabu taqiqni, jamiyat rivojlanishining turli xil bosqichida yuzaga keladigan muhitni bildiradi. Turli xil shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, bunday taqiqlar til asosida ham vujudga kelishi mumkin. Din yoki axloq taqiqlaridan farqli hisoblangan tabu o'zidan paydo bo'lgan. Ildizlari ham uzoq tarix sahifalarida yashiringandir.

J.J. Varbot tabuni aniqlaganda shuni e'tibor bilan belgilaganki, "tabu" so'zi bizning zamonimizda ikki ma'noda qo'llaniladi:

1)Ibtidoiy odamlarning diniy taqiqlari, ya'ni yuqori kuchlarda vujudga keladigan zararli oqibatlardan qochishni belgilash;

2)Sotsial-siyosiy, tarixiy, madaniy,etnik yoki ta'sirchan dalillarnining o'zaro bog'liq belgilangan so'z qo'llashni taqiqlash ¹⁰. J.J. Varbot keltirgan belgilarida diniy va sotsial tabular aniq keltirilgan. Shuningdek I.S. Kon tabuni "diniy sanksiya bilan mustahkamlangan sotsial madaniy taqiq" deb belgilagan.

¹⁰ Варбот Ж.Ж. Табу. Русский язык. Энциклопедия М., 1998. 552

Tabuning lingvistik ko‘rinishini L. Blumfeld yozgan.¹¹ U taqiqlashning uchta muhitini belgilagan:

1) Diniy atamalar. Ko‘p tillarda, jumladan ingliz tilida *God, devil, heaven, hell* va boshqa atamalar faqat diniy nutqda qo‘llaniladi. Oddiy paytlarda ularning o‘rniga boshqa so‘zlar qo‘llaniladi.

2) Beodob so‘zlar. Misol uchun *najas* kabi so‘zlar bilan bog‘liq so‘zlarni qo‘llashning taqiqlanishi.

3) Ba‘zi mudhish, kasallik yoki xavfli so‘zlar bilan bog‘liq tabu. Masalan, *to die*¹². Bizning zamonimizda taqiqlar asosan odob-axloq bilan bog‘liq.

Tabu va evfemizm hodisasi paydo bo‘lish sabablari, qanday maqsadlarda qo‘llanilishi kabilarga doir umumtilshunoslikda, turkologiyada, jumladan, o‘zbek tilshunosligida anchagina manbalar, ilmiy ishlar, maqolalar, yo‘l yo‘lakay aytilgan nazariy fikrlar mavjud.

Rus tilida K.K.Shahjuri¹³, turkmanchada S.Altayev¹⁴, o‘zbekchada A. İsmatullayev¹⁵, azerbayjonchada N.M.Jabbaraov¹⁶, qozoqchada A.K. Ahmetov¹⁷ va oltoy chada N.A.Yayimova¹⁸ tabu va evfemizmlar bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyalarini yozganlar. Turk tilida ham ko‘pgina tilshunoslar, olimlar tabu va evfemizmlarga doir maqolalar, kitoblar yozganlar. Xususan, Prof.Doğan Aksan evfemizmni ‘*güzel adlandırma*’, ‘*iyi adlandırma*’, ‘*örtmece*’ terminlari bilan qo‘llagan va unga quyidagicha ta’rif bergan: «*kimi varlıklardan, nesnelerden söz*

¹¹ Internet ma’lumoti

¹² Bloomfield 1984. (internet ma’lumoti)

¹³ Шахжури К.К., Эвфемизмы и их роль в изменении значения слов. Кандидатской диссертации, Тбилиси, 1956,

¹⁴ Алтаев, С., Эвфемизмы в туркменском языке, Ашгабад, 1958

¹⁵ Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке автореф.дис...канд.филол.наук. Т.1963

¹⁶ Джаббаров Н. М., Табу и эвфемизмы в азербайжанском языке, Баку, 1972

¹⁷ Ахмедов, А. К., Табу и эвфемизмы в казакском языке, Алматы, 1973

¹⁸ Яйимова, Н.А., Табуированная лексика и эвфемизм в алтайском языке, Горно-Алтайск, 1990

edildiğinde doğacak korku, ürkme, iğrenme gibi duyguların, kötü izlenim ve çağrışımların önlenmesi amacıyla yönelen ve dünyanın her dilinde rastlanan bir değişirme olayı»¹⁹

“Oxford İngilizcha-Türkcha lug`at”ida evfemizmning ta`rifi quyidagicha izohlangan: «*Edebi kelim, söylenmesi kaba, cırcın ya da sakıncalı görülen nesnelere, kavramların, başka sözcüklerle daha uygun biçimde anlatılmasıdır.*»²⁰

Qırğ`ız tilshunoslari evfemizmlarni quyidagicha izohlaganlar: «*Bir inancın neticesinde bir takım manalar taşıyan bir varlığın veya kavramın gerçek adının söylenilmesi yasaklanarak yerine başka sözcükler kullanmaya ‘örtmece’ denir.*»

A.Omonturdiyev: “Evfemizm ushunoslikning tadqiqot mavzusi sifatida yanada chuqur o`rganilishi kerak bo`lgan mavzulardandir” deb yozadi.²¹

J. Vandries: “Evfemizm – bu man etilgan lug`atning muloyimroq va madaniyroq formasi xolos”²², - deydi.

L. A. Bulaxovskiy: “Evfemizm – yomon fikr uyg`otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so`z orqali yovuz kuchlarni chaqirish “Xavfi”ni tug`dirmay gapirish, ... hammadan oldin “Xavfning oldini olish” formulasidir²³”, - deb yozadi.

C. Mamitov ve Z. Kulumbayeva: «*aytilishi nohush bo`lgan, muomala qoidalariga uyg`un bo`lmagan qo`pol, hunuk so`zlarning o`rniga boshqa so`zlarning qo`llanilishiga ‘evfemizm’ deyiladi.*»²⁴

Tabu mavzusi etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik, etnolingvistika kabi bilim sohalarning tadqiqot doirasiga kirgani uchun olimlarning e`tiborini tortgan. Tabu zamonga bog`liq bo`lib “davomiy” va “kechuvchi” tabu sifatida 2 ga

¹⁹ *Euphemisme, euphemism, euphemismus* (ortmece; iyi, uşurlu soz soyleme), Aksan, Doęan, Her Yonuyle Dil III, TDK Yayınları, Ankara, 1990, s.100, (Es. Husnu tabir)

²⁰ Oxford İngilizce-Türkçe Sözlük, II.cilt, Sabah Yayınları, 1990, s.572

²¹ Omonturdiyev A. O`zbek nutqining evfemik asoslari.Toshkent.1997.b11.

²²Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика.-М.: АН СССР,1963.-с.5-93

²³Булаховский Л.А. Введения в языкознание, часть II. – М.: 1953.-175 с.

²⁴ A.U. Turkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi Sayı 29 Erzurum 2006 71 Prof. Dr. Zeki Başar Özel Sayısı 5 Mamitov, C., Kulumbayeva Z., Azırkı Kırgız tili, Frunze, 1971, s.25

ajratiladi. Rohiblar, xo‘jayinlar, o‘liklar va bularga bog‘liq hamma narsa “davomiy” tabudir. “ Kechuvchi” tabular esa ayollarning fiziologik davrlari, homilalik davri, urushga otlanayotgan jangchining urush oldi va urushdan keyingi holati bilan birga ovchining ov oldi, ov payti va oxiri bilan bog‘liqdir. Oldingi zamonlarda tabu sifatida qabul qilingan, nomini tilga olish taqiqlangan inson, hayvon, tog`, dengiz, ko‘llar nomlari keyinchalik tabulik xususiyatlarini yo‘qotishi mumkin. Madagaskarga ilk bor keltirilgan otlar, bir missioner tarafidan u yerga olib borilgan quyonlar, yangi oziq ovqat va ichimliklar aholi tarafidan avval tabu sifatida qabul qilingan, keyinchalik esa tabulik xususiyatini yo‘qotgan.²⁵ Tabuning insoniyat tarixida qachon vujudga kelgani haqida aniq fikr, tasavvurlar yo‘q.

Turkcha izohli lug`atda tabuga quyidagicha ta`rif berilgan: “Muqaddas hisoblangan ba`zi insonlar, hayvonlar, narsalar nomini aytish, ularga yaqinlashish taqiqlangan, aks holda zararli oqibatlarga olib keladi deb tushuniladigan diniy ishonch, taqiq ko‘rinishida himoyalannuvchi narsa, so‘z, munosabat” deb ta`riflanadi²⁶

Tabuning tilga ta`siri evfemizmlarni vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun tabu va evfemizmlar o‘zaro bog‘liq tushunchalar hisoblanadi. Turk va o‘zbek tilidagi evfemizmlarning solishtirish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, asosiy mos kelgan joyi – bu evfemizmizatsiya va tadqiqiy evfemizmlarning metaforik ustunligi. Turk va o‘zbek tilida evfemizmlarning qo‘llanilish doirasi yaqinligi ayniqsa kunora nutqimizda uchraydigan so‘zlar va hayotda duch keladigan voqealarga bo‘g‘liq bo‘lgan evfemizmlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu ishimizda biz “o‘lim” temasi va “kasallik” temasi bilan bog‘liq evfemizmlarni chuqurroq o‘rganib chiqdik.

²⁵Güngör.A: Tabu-Ortmece (Euphemism) Sozler Uzerine 30Freud, S., a.e., s.38, ve Ornek, Sedat Veyis 100 Soruda ilkellerde Din, Buyu, Sanat, Efsane, Gercek Yayınevi, İstanbul, 1971, s.34.

²⁶ TÜRK DİL KURUMU, Türkçe Sözlük, Ankara 2005,s1549

1.2 Turk tilshunosligida tabu va evfemizmlarning nomlanishi va atamashunoslikdagi farqliliklar

Turkchada ko‘p qo‘llaniladigan evfemizmlar ahamiyatlariga ko‘ra o‘rganilmaganliklari tufayli har xil, bir biridan farqli terminlar bilan nomlanadi. Evfemizm aytilishi nojo‘ya bo‘lgan so‘zlarning o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llash demakdir. Turk tilida ushbu ta‘rif “*örtmece sözler*” ya‘ni oralgan yoki yopilgan so‘zlar yoki “*güzel adlandırma*” go‘zal nomlash kabi terminlarga nisbatan berilgan. Albatta evfemizmning vujudga kelishi tabuga bog‘liqdir. Turk olimi Oyarkılıçgil Ateş tabuga quyidagicha ta‘rif bergan: “ Bir jamiyatda qaysi bir harakat tabu hisoblansa, ushbu harakatni ifoda etishimiz uchun qo‘laydigan so‘zimiz ham tabu hisoblanadi. Ushbu harakatni taqiqlagan tabu, uning to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etilishida ham taqiqlar keltirib chiqaradi.”²⁷

Evfemizmga turkchada ritorika va adabiy san‘atlar bilan bog‘liq asarlarda “*edeb-i kelam*” termini ham ishlatiladi. “To‘g‘ridan to‘g‘ri aytilishi noxush bo‘lgan tushunchalarning go‘zal, adabiy shaklda ifoda etilishi edeb-i kelamdir.”²⁸ Edebi kelam adabiy kinoya san‘atining turi hisoblanib, majoziy ma‘noda so‘zlarni chiroyli qo‘llash demakdir.

G‘arb olimlari qo‘llaydigan “euphemism” termini turkchada “*öfemizm*” ko‘rinishida qo‘llaniladi.

Evfemizmlar qaysi maqsadda qo‘llanilishiga ko‘ra turlarga bo‘lingan. “*Açık euphemizmler*” termini H.Melenk fikriga ko‘ra o‘zining asl maqsadida, ya‘ni odamlarga hush kelmagan so‘zlar, tushunchalarni boshqa so‘z va iboralar bilan almashtirib qo‘llashdir. “*Gizli euphemizmler*” berkitilgan evfemizmlar ko‘pincha

²⁷ Oyarkılıçgil Ateş Arzu, “Dilde tabu ve örtmecenin yeri üzerine”, Dil Dergisi, S. 49, kasım 1996, s. 16 – 18

²⁸ Menderes Coşkun, Sözüün Büyüsü Edebi Sanatlar, Dergah Yay., İstanbul 2007.s45

³⁵ Üstüner Ahat, Örtmece sözlerle ilgili terimler: 2007, s 4

tijorat va siyosiy sohada uchraydigan, aldash ko'zbo'yamachilik maqsadida qo'llanadigan yolg'on va noto'g'ri nomlar, evfemizmlardir. Ushbu o'ziga xos evfemizm turi turklarda " *kötü adlandırma*" yomon nomlash yoki " *diphemism*" terminlari bilan ishlatiladi.²⁹

Turk tilida qo'llaniladigan evfemizmlarning paydo bo'lishi ularning mohiyati va ma'nolarini chuqur tadqiq qilib ko'rsatilgan ishlar juda kamdir. Evfemizmlarning vujudga kelishini chuqur o'rgangan g'arb tilshunoslari bu so'z yoki so'zlarni shakl va ma'nosiga ko'ra tasniflaganlar. Shakliga ko'ra: *birleştirme*(birlashtirma), *türetme*(vujudga kelish), *yansıtma sözcük*(aks etuvchi so'z), *kısaltma*(qisqartma), *silme*(o'chirish), *ters argo*(teskari argo) kabi guruhlarga bo'lingan. Evfemizmlar ma'nosiga ko'ra: *zıt anlam*(zid ma'no), *mecaz*(majoz), *benzetme*(o'xshatish), *ima etme*(imo ishora), *kinaye*(kinoya), *abartma*(mubolag'a) kabi tasniflar qilingan.³⁰

Odil Ahmedov " Turkiy tillardagi tabu va evfemizmlar" nomli asarida evfemizmlarning yasalish usullari; "evfemistik metaforalar, evfemistik majoz, ironiya, olmoshlardan yasalgan evfemizmlar, evfemizmi shakllantiruvchi boshqa ta'sirlar deformatsiya, 3 nuqta, olingan so'zlar, hurmat ma'nosini ifodalovchi evfemizmlar" kabi tushunchalar tahlil etilgan.³¹

Evfemizmlarning o'ziga xos xususiyati ularning doimiy o'zgarib turishidir. Evfemizm sifatida tilda qo'llaniluvchi evfemik so'zlar keyinchalik bu xususiyatini yo'qotib o'z ma'nosida qo'llanila boshlaydi va yangi evfemik so'zni shakllanishiga ehtiyoj tug'iladi. Masalan, turkcha *sakat* (nogiron) so'zi o'rniga qo'llanilgan *özürlü*(uzurli) evfemizmi vaqt o'tganidan keyin aholi orasida evfemistik xususiyatini yo'qotgan, uning o'rniga " *engelli*" evfemizmi qo'llanila boshlagan.

³⁰ Demirci Kerim, "Örtmece (Euphemism) kavramı üzerine", Milli Folklor, C. 10, S. 77, Ankara 2008, s 30.

³¹ Ahmedov Adil, Türki Dilderindeki Tabu men Evfemizmler, Almatı 1995, s11

Evfemizmlarning doimiy o'zgarib turishi, tilning lug'at boyligini boyitadi, mavjud so'zlarga yangi mano yuklagani tufayli tilda ma'nodosh so'zlarning vujudga kelishini va so'zlarning "polisemantik" xususiyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.³² Turk tilida evfemizm termini bilan ma'nodosh hisoblangan "hüsnü tabir" termini ham ishlatiladi.

Butun dunyo tillarida qabul qilingan "evfemizm" termini (nemischa euphemismus, fransuzcha euphemisme, inglizcha euphemism) yunoncha "eupheme"(yaxshi, xosiyatli so'z) o'zagidan paydo bo'lgan.³³

Turk lahjalarida "haristir til" kabi termini bilan qo'llaniladi. Turkiyada evfemizmlar eski davrlarda "edebi kalam", "hüsnü tabir", "güzelleme", "asalet", "mumtaziyet", "güzel adlandırma" kabi terminlar qo'llanilgan.

Hozirgi turk tilida evfemizm terminining haqiqiy turkcha qarshiligi "örtmece sözler", "örtmece ifadeler" terminlaridir.³⁴

1.3 Tabu va evfemizmlarning qo'llanilish muhiti

So'zlovchi mavzu yoki muhitdan kelib chiqib u yoki bu narsaga odob yoki beodoblik, qo'pol yoki muloyimlik nuqtayi nazari bilan baho berishi mumkin.

O'lim va dafn marosimi mavzulari, agar bu hodisa aktual bo'lsa (nutq paytiga to'g'ri keladi yoki undan unchalik katta bo'lmagan vaqt bilan farq qiladi), evfemizmlar yordamida nihoyatda og'zakilashadi. Masalan, "yerga berib qo'ymoq" (lekin ko'mmoq emas), shuningdek, meditsina xodimlari nutqida: "bemorni yo'qotmoq" – bemor o'lishiga yo'l qo'ymoq, kasallik tuzatishni eplay

³² Güngör Ahmet, "Tabu – örtmece sözler üzerine", Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, S. 29, Erzurum 2006, s 81.

³³ Aksan Doğan, Her Yönüyle Dil Ana Çizgileriyle Dilbilim C. 3, TDK. Yay., Ankara 1982, s100

³⁴ Coşkun Menderes, Sözü'n Büyüsü Edebî Sanatlar, Dergah Yay., İstanbul 2007, s 188.

olmaslik, bolalar “ketishyapti” (o‘lyapti); dafn marosimining o‘rniga “diniy xizmatlar” va boshqalar. Evfemizmning bu mavzusi va muhitini shaxsiy deyish mumkin: ular gapiruvchi, suhbatdosh va uchinchi shaxsning shaxsiy hayotiga bog‘liqdir.

Bundan tashqari, evfemizmlarning paydo bo‘lishi turli xil inson va jamiyatning ijtimoiy hayoti muhitiga ham xosdir. Bu, masalan, turli xil umumlashtiruvchi iboralarni qo‘llash: “belgilangan doiralar”, “o‘xshash me‘yorlar”, “oldindan aytilmaydigan ish”, “tinchlik o‘rnatishga qaratilgan amal”, “jismoniy yo‘qotish”. Bunga yana siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik sohalarida ko‘p qo‘llaniluvchi termini keltirib o‘tishimiz mumkin, 1960-yilga qadar g‘arbga kirmagan mamlakatlarni “*az gelişmiş ülkeler*” kam rivojlangan davlatlar, keyinchalik ushbu termin “*gelişmekte olan ülkeler*” evfemizmi bilan almashtirildi. Shunday qilib, evfemizmlar qo‘llanadigan muhitlar quyidagilar³⁵:

1. Diplomatiya: “o‘zaro do‘stlik prinsipi” (“ko‘zga ko‘z”)
2. Hukmronlikning jazo tariqasidagi harakati: “qamoqqa olmoq” ning o‘rniga “ushlab olmoq”, “o‘lim jazosi” ning o‘rniga “oliy hukm”.
3. Davlat va harbiy sirlar: “noodatiy turdagi qurollarni ishlash” (bakteriologik qurol nazarda tutilyapti)
4. Armiya, razvedka, militsiya, jinoiy qidiruv va ba‘zi boshqa hokimiyat a‘zolari ishi, “ko‘rinishga” ishlashi kerak emas. Bu yerda qo‘llanadigan so‘zlar va iboralar umumiy ma‘no bilan, o‘sha paytning o‘zida aniq harakat va holatga nisbatan qo‘llaniladi: “vazifa”, “operatsiya”, “obyekt”- “maxfiy ravishda kuzatilishi kerak bo‘lgan shaxs” ma‘nosida keladi.
5. Taqsimlash va xizmat ko‘rsatish muhiti: “ehtiyoji o‘sgan mollar”, (defitsit), maishiy nutqda va so‘zlashuv tilida “tashkillashtirmoq”, “tuzish”, lar “biror bir molni qo‘lga kiritishga yordam bermoq” iboralari keng tarqalgan.

³⁵ Москвин В.П. “Эвфемизмы” М., 1999

6. Har xil millat va sotsial guruh o'rtasidagi munosabat, bu guruhlarining holati: "Mahalliy bo'lmagan aholi"; "etnik tozalash" – u yoki boshqa tumandagi, shu hokimlikka tegishli bo'lmagan millat shaxslarini yo'q qilish; "xavf ko'tarilgan guruhlar" – narkomanlar, gomoseksualistlar, foxishalar.
7. Ba'zi kasb turlarida biror maqsad bildiruvchi, shu kasbning mavqeyini oshirish, yoki ba'zi kamchiliklarini yopish uchun qo'llaniladigan evfemizmlar. "Tozalash ishlari operatori" (oldingi o'zining evfemizmik ma'nosini yo'qotgan "assenizator"); "bajaruvchi (ijrochi)" - o'lim jazolarini bajaruvchi shaxs (oldingi "jallod"); sut sog'uvchining o'rniga "mashina bilan sut sog'uvchi operator".

Jamiyat rivojlanishining birinchi bosqichida evfemizm deb tuyulgan, keyinchalik evfemizm bo'lishdan to'xtaydi va obyektни o'ta to'g'ri nomlaydi. Misol: "defektli (jismoniy yoki ruhuy kamchiligi bor)" so'zi keng tarqalgan edi, bu ilmiy atama juda ko'plab har xil so'zlarni yopishi kerak edi: aqli noraso, noraso (sifatsiz), shuursiz, "chala", aqli zaif, telba, yoqimsiz (yaramas) – ba'zida hattoki ovsar va aqldan ozgan va yana boshqa ko'p misollar. Bu so'zlarning ba'zilari qachonlardir evfemizm bo'lgan, keyin esa to'g'ri va mustahkam so'zga aylangan..."³⁶ Yangi vositalar va ruhiy norasolikni bildiruvchi usullar tez evfemizmik ma'nosini yo'qotadi va to'g'ri ma'noda qo'llaniladi: "aqli zaif", "boshi bilan urshib qolgan", "tomi ketgan" va boshqalar. Vaqt omilidan tashqari yana sotsial omil ham mavjud. Shevalari va so'zlashuv tilini o'rganishda shu narsa sezildiki, shuni o'zida olib yuruvchilar o'ziga bir necha anatomiya va inson fiziologiyaga tegishli obyekt va harakatni nomini og'diradi, jinsga aloqador bo'lgan so'zlar ijtimoiy leksikada atov funksiyasida qanday ishlatilsa, his-hayajon iboralarida ham shunday qo'llaniladi. Lekin bu sotsial muhitda bazi bir evfemizm nutqlarining talab, ehtiyojlari bor. Masalan, sheva va so'zlashuv tilida obyekt, jarayon, xususiyatlarning taqiqlash ma'nosini bildiruvchi rivojlangan leksik

³⁶ Боровой Л.Б. "Путь слова" М., 1963, стр 65

vositalar mavjud. Misol uchun quyidagi “Sho‘xlik qilmoq”, “nojo‘yi harakatlar qilmoq”, “erkalamoq” fe‘llar “sotuvchilar : xohlasam soat ikkida, xohlasam uchda ochaman, agar xohlasam umuman kelmayman deb janjal to‘polon qilyapti” kabi salbiy ma‘nodagi harakatlarda qo‘llashda ishlatiladi. Nutq usullarining vaziyatiga – suhbatdoshning toifasiga, muloqotning ohangdoshligiga, uning maqsadi va shevada, so‘zlashuv uslubida gapiruvchilarga qarab, evfemizmik vositalar murojaat qiluvchilar shunday nomlanadigan giperkorreksiyaning namoyon qiladi: evfemizmlarni qo‘llashda hatto boshqa sotsial muhitda (masalan, adabiy tilda gapiruvchilarda) “odobsizlik” va qo‘pol deb baholanmaydigan so‘z va iboralar ham qo‘llaniladi. Masalan, ba‘zi zamonaviy rus tili so‘zlashuv tilida gapiruvchilar “ayollar yozini” “kampirilar yozi” iborasi bilan almashtirib qo‘llaydi.

Evfemizmlar o‘ziga xos funksiyalarni sotsial jargonlarda bajaradi. Ular orasida muhimi – mohiyatni niqoblash, ba‘zida xazil, o‘yin, tajnis elementlari bilan. Masalan, qamoqxonaga to‘g‘risida – “akademiya”, “kurort”, “dacha”, qo‘l kishanlari to‘g‘risida “braslet”, o‘g‘irlamoq to‘g‘risida “yuvib ketmoq”, “tozalab ketmoq”, murda haqida “ko‘z yumgan”, giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchilar haqida “chopar”, shprits orqali qabul qilinadigan giyohvand moddalar haqida “sanchiq”, giyohvand moddalar haqida “ko‘kat” (giyohvandlar jargonida).

1.4 Tabularning mavzulariga ko‘ra turlari.

Tabu taqiqlarini hayvon, inson va boshqa narsalarga ko‘ra 3 guruhga ayirish mumkin:³⁷

1) **Hayvan tabusu.** Hayvon tabusi. Totemizmning asosi hisoblangan ba‘zi hayvonlarni(bo‘ri, ayiq, burgut, ilon, sigir va b) o‘ldirish, tanovul qilish va nomini aytish taqiqlangan. Hayvonlar muqaddas totem sifatida ilohiylashtirilgan.

Bo‘ri bilan bog‘liq bo‘lgan tabular turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. XX asr boshlarida Qozog‘istonda izlanishlar olib borgan nemis olimi Rehord Karutz: “ Qozoq bolalariga bo‘rining nomini tilga olish taqiqlangan. Chunki tabu buzilsa, boshqa hayvonlarga zarar tegishi mumkin, degan tasavvurlari mavjud bo‘lgan” deb yozadi.

Turklarning ham totemi hisoblangan “*kurt*” bo‘ri tabu hisoblangan va uning o‘rniga quyidagi evfemizmlar qo‘llanilgan:

Dağda gezen-tog`da kezuvchi, dik kulak-tik quloq, dikar, guri, kaşkir-qashqir, kızıl göz, gökgözlü, canavar, peygamber köpeği, uzun kuyruklu-uzun dumli. Ushbu evfemizmlar nafaqat turk tili balki boshqa turkiy tillarda ham qo‘llaniladi.

Sudralib yuruvchi hayvonlar orasida, ilonga katta ahamiyat beriladi. Terini yangilash xususiyatiga ega ekanligi uchun o‘lmaslik ramzi hisoblangan ilonning mifologiyada, ibodatda, sehr-u joduda, san`atda o‘ynagan roli barcha turkiy xalqlar uchun umumiy hisoblanadi. Ilon bilan ham bog‘liq tabu mavjuddir. Uyga kirgan ilonni o‘ldirmasdan boshiga sut yoki qimiz to‘kib tashqariga chiqarish kabi. Bu tarzda insonlar ilonni o‘ldirmasdan boshqa ilonlarning o‘ch va nafratidan yiroqda bo‘lishlarini tushunadilar. Qozoqlar ilon o‘ldirishdan juda qo‘rqadilar. Shuning uchun uni nomini tilga olishdan ham qochadilar.

³⁷ Freud, S. 2002, Totem ve Tabu (Cev. K.Sahir Sel), Sosyal Yayınları., s.41.

Ispaniyaliklarda ilon ma`nosiga to`g`ri keluvchi “culetra” so`zi aytilmaydi. Bu so`z tabu hisoblanadi.

Janubi g`arbiy Amerikada birovni ilon chaqsa:” ilon chaqdi” deyish o`rniga “oyog`iga tikan botdi” deydilar.³⁸

Turkchada “*yılan*” ilon so`zi o`rniga quyidagi evfemizmlar qo`llaniladi:

Ala genevir, alagüçük, ala tengirek, babakoş, bozyuruk, bozuyruk, cavgin, capar, emecen, eram, gabaköz, genevirala, göcergelek, ilan, kabran, kıvrık, oklacik, sarıbek, sokak, uzun bocu, uzun kız, yerde gezen, yuğrük.

2) ***Insan tabusu.*** Inson tabusi. Yangi tug`ilgan chaqaloq, kasallar, o`liklar barchasi tabu hisoblanadi. Turk tilida inson tabusi *qirol(hukumdor) tabusi, dushman tabusi, o`ldirilgan dushman bilan yaqinlashish, urush yakuni taqiqlari* bilan bogliqdir. 1887 yilda Kambodja qirolini mashinasidan tushib hushidan ketgan paytda qo`rquvdan va hurmat yuzasidan hech kimning qirolga yordam etmaganligi va 1800-yilda Koreya qirolining terisidagi kasallik sabab hech kimning yaqinlashishga jasorat yetmaganligi va qirolning ushbu kasallikdan o`lganligi inson tabusiga misol sifatida keltirib o`tish mumkin.

3) ***Narsa(kiyim, qurol va b) daraxt, o`simlik, uy va ba`zi yerlar bilan bog`liq tabular.*** Shaxslarning individual narsa buyumlarini xavf- xatar va o`girilardan himoyalaniishi kerak bo`lgan tabular bu tur tabularidir. Bir insonning doimiy ravishda qo`llaniluvchi buyumlari, kiyimlari, asboblari, qurollari boshqa insonlar uchun tabu xususiyatiga ega bo`ladi. Avstraliyada o`g`il bolaning o`smirlikka o`tish marosimida olgan yangi ismi uning o`ziga xos mulki hisoblanadi, shu sababdan bu ism sir tutilishi kerak.

³⁸ Ахметов Ә., Т.ркі тілдеріндегі табу мен эвфемизмдер, «ҒЫЛЫМ», Алматы, 1995, 43-44-б.

Tabu bilan bog`liq ushbu ma`lumotlarga asoslanib tabuni quyidagicha tasniflashimiz mumkin: Tildan tashqari omillar vositasida paydo bo`lgan tabu va lingvistik tabu.

1. **Tildan tashqari omillar vositasida paydo bo`lgan tabular.** Insonlar tarafidan qilinishi taqiqlangan ish, harakatlarga, ma`lum shaxslarga (qirol, afsungar, rohib, homilalik ayollar) qo`llanilishi mumkin bo`lmagan narsa buyumlar bilan bog`liq bo`lgan taqiqlar.
2. **Lingvistik tabular.** Til vositalari orqali paydo bo`lgan lingvistik tabu faqat tushuncha va ma`noni taqiqlovchi chegara emas, balki o`sha tushunchaning tildagi nomlanishiga ya`ni so`zga (dil gostergisi) qo`yilgan taqiqlardir.

Yaponlar, insonlar tiqilinch bo`lgan bir muhitda “kiru” (kesmoq) degan so`zni ochiqcha aytmaydilar. Agar aytsalar: “Insonlar urush chiqarib urush pichoq qo`llaydilar” degan tushuncha ta`sirida bo`ladilar. Yana to`yda “kaeru” (qaytmoq, ayrilmoq) so`zlarini hech kim aytmaydi. Aks holda bo`lajak oila ayrilishiga ishoniladi. Yaponlar va koreyaliklar “to`rt” so`zini yaponcha “shi” va koreyscha “sa” so`zini aytishdan qochadilar. Chunki bu so`zlarning omonimi “o`lim” ma`nosini bildirganligi sababli, ushbu so`z aytilganda o`lim va falokat chaqirilishi tasavvuri keng tarqalgan.³⁹

Ullman tabuning psixologik xususiyatiga ko`ra 3 guruhga ajratgan:

1. Qo`rquv bilan bog`liq tabular: Tangri, payg`ambar, shayton, jin... va b diniy mavzular bilan birga boshqa diniy e`tiqodlardan kelib chiqqan qo`rquvlar bu guruh ichida o`rin egallaydi.

Tangri so`zi o`rniga Injilda “*pater*” Musevilarda “*master*” sohib, inglizlarda “*lord*” sohib, fransuzlarda “*seigneur*” sohib so`zlari qo`llaniladi.

³⁹ АХМЕТОВ Ө., а.е., s.44-45.

Ilmiy yozuvlarda inglizlar “ Oллоh, Tangri” so‘zlariga ma`nodosh bo‘lgan “God” so‘zi o‘rniga “ George”, “ Lord” evfemizmlarini qo‘llaydilar.⁴⁰

2.Nohush voqealar bilan bog`liq tabular. Bular asosan kasallik nomlari va o‘lim bilan bog`liq evfemizmlardir.

Kolera’ yerine: ‘*capıt hastalıđı*’, ‘*carık cıkartmaz*’, ‘*göğertme*’, ‘*gövertme*’, ‘*gurilla*’, ‘*kirli pacavra*’, ‘*kuşaq*’, ‘*kusah*’, ‘*ölet*’ vb.

‘Verem’(sil) yerine: ‘*adı belirsiz*’, ‘*berem*’, ‘*dık*’, ‘*gelincik*’, ‘*güzel hastalık*’, ‘*güzelleme*’, ‘*ince ağrı*’, ‘*ince dert*’, ‘*ince hastalık*’, ‘*ince illeti*’, ‘*incemaraz*’, ‘*kel hastalık*’, ‘*kötü hastalık*’, ‘*kurudan*’, ‘*merem*’, ‘*öfken*’, ‘*öpke avruu*’, ‘*örken*’ (‘*ögken*’, ‘*öken*, ‘*ökren*, ‘*örkence*’), ‘*succe*’, ‘*verev*’ vb.

‘Kanser’(saraton) yerine: ‘*eşekgummas*’, ‘*sınan*’, ‘*sınan*’, ‘*yemece*’ (‘*yimece*’), ‘*yepeme*’, ‘*yeyilme*’, ‘*yıyıcıyara*’, ‘*yöreme*’ vb. ortmece soz kullanma eğilimi yaygındır.

Turkiyaning har xil viloyatlarida o‘lim bilan bog`liq qo‘llaniladigan evfemizmlar quyidagilardir:

Aralık iyisi: o‘lishdan oldin, ahvoli yaxshilangan kasal, yaxshi o‘lim, *avuşmak:* o‘lmoq, *cansuyu:* o‘layotgan insonga berilgan suv, *durtulmek:* O‘lmoq *eren evi:* o‘lik chiqqan uy, *karadeve:* O‘lim, *ajal sorutmak:* o‘lmoq.

O‘lgan birisi haqida gapirilayotganda “o‘ldi” so‘zining o‘rniga quyidagi evfemizmlar qo‘llaniladi:

Emanetini verdi- omonatini qaytardi, *sonsuzluğa intikal etmek-* , *kısmeti idi-* qismati edi, *son uykusuna yatmak-* oxirgi uyqusiga ketdi.

Anadolu va Shimoliy Mesopotamiya turklarida *emanetini teslim etti*’ omonatini topshirmoq, ‘*vadesi doldu*-va`dasi bitdi, ‘*takdiri ilahi tecelli etti*’, ‘*yazısı*

⁴⁰ Ахметов Ә., Т.ркі тілдеріндегі табу мен эвфемизмдер, «ҒЫЛЫМ», Алматы, 1995, 75-б.

böyle yazılmış-taqdiriga bitilgani shu ekan, 'hepimizin gideceğiz yer orası-hammamızning boradigan yerimiz o'sha yer kabi ifodalar qo'llaniladi.⁴¹

3.Ayb hisoblangan ba`zi tushunchalar bilan bog`liq tabular. Axloqiy norma va etik qoidalar tufayli paydo bo`lgan, inson organlari, jins, tualet terminlari va b.nomini ko`pchilik oldida aytish bir qancha taqiqlar(tabu) va evfemizmlarning yuzaga kelishiga sabab bo`lgan.

'Tuvalet' yerine: 'aç cardak', 'apana', 'apsane', 'ayağ yolu' ('ayag yolu', 'ayah yolu', 'ayakcak', 'ayaklık'), 'ayakyolu', 'carak', 'evdesthane', 'gadem tana', 'ganere', 'gez' ('gezinti', 'gezme'), 'gulluk', 'kabine', 'kenef', 'kenent', kola', 'kul' ('kula'), 'kulluk', 'labova 'memişhane', 'oturak', 'suva', 'taşra' ('taşira', 'taşura'), 'wc', 'yuznumara' vb.

'Gebe' yerine: 'ağır ayaklı', 'aylı', 'ayağı ağır', 'böylü', 'bozulacı', 'buaz', 'buğaz', 'buvaz', 'buyalacı', 'gargın', 'gomanlı', 'gövdeli', 'gümenli' ('gümenci'), 'hamile', 'hunnacı', 'hunnayıcı', 'iki canlı', 'portlacı', 'türiük', 'üzeri yüklü', 'üzerli', 'yüklü' vb.

Ayollarning 'oy boshi'(menstruasyon donemi) yerine: 'akıntı', 'aklık', 'anahalı', 'beli acılmak', üst', üst kirlenmek', üstü gelmek', üstü kirlenmek', üstü kirli', üstünden geçmek', üstüne olmak', 'üstünü görmek', 'üstünü kirletmek', 'kerif', 'yola çıkmak' vb.⁴²

I Bob yuzasidan xulosalar: Tilshunoslikda tabu va evfemizmlar turli tillar doirasida o`rganilgan. Har bir tilde taqiqlangan leksika sifatida tabu va evfemizmlar qo`llanadi. Tabu va evfemizmlar til lug`at tarkibining alohida qatlami hisoblanadi. U xalqning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlari, mentaliteti bilan bog`liq holda mavjud bo`ladi. turk tilshunosligida tabu va evfemizmlar

⁴¹ Kalafat, Yaşar, Turk Dunyasi Karşılaştırmalı Turkmen Halk İnançları, (Afganistan, Ozbekistan, Turkmenistan, Nahçıvan, Azerbaycan, Kafkasya, İran, Irak, Anadolu, Makedonya), ASAM, Avrasya Stratejik Araştırmalar Merkezi Yayınları. 269.

⁴² Ayrıca bk. Sv. Ecz. Ucer, Mujgan (Turk Halk Hekimliği Sempozyumu Bildirileri, 23-25 Kasım 1988 Ankara.65

tushunchalarning atamalari turlichadir. Ya`ni ma`lum bir ma`no farqliliklari tufayli bir to`xtanga kelinmagan. Tabu tushunchasi ham ma`nosiga ko`ra bir nechta guruhlarga bo`lindi. Ushbu tasniflashda ham tabularning eng asosiy xususiyatiga ko`ra ya`ni tilga ta`sir etishiga va keyinchalik evfemizmlar ko`rinishida mavjud bo`lishiga ko`ra e`tabor berildi.

II.Bob. Nutqda evfemizmlarning qo‘llanilishi

2.1 Evfemizmlarning qo‘llanilishi va mohiyati.

Evfemizm yunoncha “eupheme” ya`ni yaxshi nutq degan ma`noni bildiradi.

Evfemizm bu og`zaki yoki yozma nutqda qo‘llaniladigan ma`nosi neytral va so‘zining “vazifasi” emotsional bo‘lgan so‘z bo‘lib, qo‘pol yoki “beodob” so‘zlar o‘rniga qo‘llaniladi.

Evfemizm o‘ziga xos xususiyatga ega. U evfemizmning lingvistik mohiyatini namoyon qilishidir.

Evfemizmlarning jarayoni uchun quyidagi jihatlar mavjud:

So‘zlovchi o‘z fikrini til va nutq birliklari vositasida ifodalaydi. Bu jarayonda asosan tushunchalarning to‘g‘ridan to‘g‘ri ma`nosini bildiruvchi vositalardan foydalanadi, aniq obyektlar, reallik, insoniyat faoliyati muhiti va insonlarning munosabati nutqda o‘z aksini topadi. Ammo bular vaziyatni yumshatish, qo‘pol tasvirlamaslik, so‘zlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llashdan qochish, muloqot madaniyati, so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi hurmat va boshqalarni ifodalashda muhim. Nutqimizda faqat belgilangan mavzular va muhit bilan bog‘liq birliklar ham qo‘llaniladi.

So‘zlovchi bunday ma`nolarni tanlashda shunchaki bu yoki boshqa qo‘pol tuyulgan so‘z yoki iboralarni yumshatibgina qolmay, asl ma`noni yashirib, niqoblab keladi.

Evfemizmlarni qo‘llashda kontekst va nutq shartlariga tobeligi: Nuqt vaziyatining ijtimoiy nazorati qanchalik qattiqroq bo‘lsa, evfemizmlarning kelib chiqishi ehtimoli shunchalik kuchli bo‘ladi; va aksi, nutq vaziyatining nazoratni kuchsizligi hamda nutqning g‘ayrixtiyoriy yuqoriligi, (oila a‘zolari va do‘stlar bilan muloqotda) evfemizmlar “ochiq(to‘g‘ridan to‘g‘ri)” ma`noni yoki

difemizm⁴³ ni afzal ko‘radi. Evfemizmlar baʼzi sharoitlarda evfemizm sifatida baholansa, boshqa vaziyatda boshqacha baholanadi.

Evfemizmlar quyidagi til birliklari bilan ifodalanadi:

- I. Belgilovchi soʻzlar
- II. Yetarlicha umumiy maʼnoga ega boʻlgan otlar
- III. Noaniq yoki koʻrsatish olmoshlari
- IV. Boshqa tilga oid soʻz va atamalar
- V. Davlat sirlarini bekitishga bogʻliq qisqartma soʻzlar
- VI. Baʼzi ish harakatini notoʻliqligini yoki xususiyati kuchsiz darajada boʻlgan soʻzlar, ular oʻzlarining odatiy maʼnolarida kelmay, yumshatuvchi evfemizm boʻlib qoʻllaniladi: (kar odam haqida) “u eshitmaydi”, (choʻloq haqida) “u sal oqsoqlanadi”.

1. Soʻzlovchining sotsial va shaxsiy munosabatlarda evfemizmni qoʻllashidagi eng muhim maqsadi suhbat davomidagi noxushlik yoki oʻzaro mojarolardan qochish, suhbatdoshda noqulayliklar tugʻdirmaslikka intilishdir. Masalan, turk tilida xotiniga xiyonat qilmoq “*karısını aldatmak*” ifodasi oʻrniga “*üstüne gül koklamak*” boshqa gulni *hidlamoq* kabi evfemik ibora ishlatiladi.

Oʻzbek tilida – “xizmatlari evaziga haqli ravishda dam olish” soʻz birikmasi bilan “ketmoq” soʻzlari “nafaqaga chiqmoq” soʻziga nisbatan bir muncha muloyimroq aytiladi, chunki agar gap ketayotgan odamni oldida “pensiya” soʻzini qoʻllasa, u odam uchun bir oz noqulayliklar tugʻdiradi. Alohida evfemizm holatlari turi: “Bu libos yoshingizni katta koʻrsatyapti” ushbu vaziyatda gapiruvchi shaxs “qari” soʻzini qoʻllashdan qochdi.

“Iltimos, oʻtirib oling!” bu unchalik muloyim boʻlmagan “oʻtiring” soʻzini yumshatilgan shakli.

⁴³ Крысин Л.П. “О понятие социального контроля в процессах речевого общения” М., 1989, 139

2. Nisbatan o'ziga xos, sotsial ma'nosida niqoblash maqsadida qo'llaniladigan evfemizmlar bor. Umumlashgan atamalar odatda mahfiy ishlarda, ya'ni MK, DHQ ishlarida turg'un birikma bo'lib qolgan so'zlarni tasvirlashda qo'llaniladi. Masalan, o'zbek tilida ma'muriy-idoraviy jargonda lager yoki qamoqxona "muassasa", jarima izolyatori "alohida turuvchi" deyiladi; "nazoratchi" so'zi o'rniga oxirgi paytlarda "kontrolyo'r" so'zi keng tarqalgan. Shu jumladan "umumlashgan" ko'p atamalar oldidan "спец" so'zi qo'shiladi: "спецконтингент" (mahbuslar yoki surgun qilinganlar haqida (biror guruh)), "спецотдел" (harbiy bo'limlarda qo'llaniladi (bo'lim)), "спецакция" (bu jargon o'limga buyurilganlar haqida gapirganda qo'llaniladi (otmoq)), "oliy jazo" evfemizmi esa hozirgi kunda ma'muriy huquqiy uslubda qo'llanilib o'lim jazosi berilganlarga nisbatan ishlatiladi. Bunga yana "neytrallashtirmoq, ta'siri o'tmaydigan qilib qo'yimoq" ni misol qilsak bo'ladi, gapda "mudofaachilarni neytrallashtirish kerak" (yo'q qilmoq), hamda "qotillik" so'zini o'rniga "jismoniy yo'qotish" deyiladi. Harbiy tilda dushmanlardan bekinish uchun "snaryadlar" so'zining o'rniga "bodringlar" qo'llaniladi. Turli xalqlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro munosabat ommaga chiquvchilar (muxbirlar, sharhlovchilar, deputatlar, siyosiy arbob va boshqalar) o'rtasida taranglashadi, noaniq so'zlar, qovushmagan iboralar bu taranglikni kuchaytiradi. Shunday qilib, bir so'zli ba'zi xalqlarning vakillari ma'nosini o'rniga quyidagi iboralar qo'llaniladi: "turk"ning o'rniga "turk millatidagi shaxs", "o'zbek" ning o'rniga "o'zbek millatidagi shaxs" deyiladi. Ba'zi paytlarda shunga o'xshash vaziyatlarda, gapiruvchi shaxsga biroz noqulay bo'lgan paytlarda aniqroq narsani bekitib gapirishga harakat qilinadi. Masalan, "yevrey yozuvchilari" haqida gapirganda, ularni "rus tilida gapiruvchi yozuvchilar" deyiladi⁴⁴.

3. So'zlovchining evfemizmi qo'llashdan uchinchi maqsadi, u gapirgan gapni eshtuvchining faqat bitta o'zigagina tushunarli bo'lishiga harakat qilishidir.

⁴⁴ Видлак С.Н. "Проблема эвфемизма на фоне теории языкового поля" М., 1967.

Bildikki, ma'lumotning bunday turda aytilishi taxminiy, agar bunday ma'lumotlar shaxsiy yozishmalar tarkibida bo'lmay, bosmaga berilgan bo'lsa va o'quvchi va eshituvchiga hammabob bo'lsa, u asta-sekinlik bilan hayoliy bo'lib boradi. Shu nuqtai nazar bilan turli xildagi e'lonlar va nashrdan chiqadigan bosmalar xarakterlidir. ("tashkilotimiz haydovchi qidirmoqda. Zararli odatlarga ega shaxslar, iltimos, murojaat qilmang.") bu yerda zararli odatlarga ega deganda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni xush ko'radiganlar nazarda tutgan.

Berilayotgan ma'lumotni bекitishda yana bir turdagi e'longa erkak va ayol munosabatiga ham bog'liq. "Yosh ayol badavlat erkakka xizmat ko'rsatadi"; "Kelishgan ayol shaxsiy homiy qidirmoqda" ajratib ko'rsatilgan so'zlar evfemizmlardir; bu so'zlar ularning lug'at boyligidagi ma'noda qo'llanmaydi, balki gapiruvchi shaxsning o'zi nima demoqchiligini bildiradi; yana bu evfemizmlar o'zining umumiy ma'nosini yomon bajaradi, uning "sirli" ma'nosi o'qilganda yetarlicha tushunish juda oson (qanday turdagi ish qidirayotgani, qaysi maqsad bilan shaxsiy homiy qidirilayotgani juda aniq bo'ladi.)

Evfemizmlarning paydo bo'lish asosida quyidagilar yotadi:

1) Chuqur arxaik "taqiq"⁴⁵ tili – evfemizmlari quyidagicha "öli" o'lik o'rniga "ceset" yoki "rahmetli" evfemizmi qo'llaniladi.

2) Sheva bilan bog'liq omillar.

Shunga asoslanib insonning borliq shaklining nafislashishi, aniq predmetlar va hodisalarning ma'nosi (masalan, ba'zi jismoniy hodisalar va inson tana a'zolari) bir ma'noli hisoblanadi va tildan chiqarib yuboriladi, nafaqat muloqotda boshqa shakllar qo'llaniladi, balki nuqson va nojo'ya xatti harakatda ham iboralar yumshatib aytiladi. Insonlarning sotsiallasishi uyatni va muloyimlikni fahmlagani

⁴⁵ Taqiq atamasi diniy-marosimlardan o'zlashtirilgan bo'lib, jamiyatshunoslikda diniy taqiqlarni bildiradi. Bundan tashqari har xil jamiyatga zarar yetkazuvchi, intizomni buzuvchi omillarni taqiqlashini ham bildiradi.

evfemizmlarni qo‘llashga olib keldi. Ko‘pchilik evfemizmlar uyalish hissidan vujudga keladi, va ular xulq –atvor qonun va normalar sistemasini vujudga keltiradi.

Shuni e‘tiborga olish kerakki, oxirgi paytlarda evfemik nutqning yangi vazifalari – ba‘zi harakatlarning paytini bo‘rttirish yuzaga kelmoqda. Shu munosabat bilan evfemizimlashishning ba‘zi muammolari yangicha o‘rganilishi lozim.

Tilshunos N.Ismatullayev o‘z nomzodlik dissertatsiyasida evfemizmlarning oltita funksiyada qo‘llanilishini ko‘rsatib o‘tgan:

- I. Qo‘rqitadigan obyektlarning nomini o‘rnida;
- II. Yoqimsiz va g‘ashga teguvchi so‘zlar nomi o‘rnida;
- III. Beodob sanaladigan so‘zlar o‘rnida;
- IV. Vohimaga soluvchi dangal so‘zlarni o‘rnida;
- V. Bildirilayotgan tushunchani niqoblash o‘rnida;
- VI. Tashkilot va mutaxassisliklarni bildiruvchi e‘tiborga molik bo‘lmagan ma‘nolarini beruvchi so‘zlar o‘rnida. Berilgan tasnif mayda qismlari bilan farq qilsa ham, ularning hammasi evfemizmning umumiy sababini ochadi - muomala mobaynida vujudga keladigan mojarolardan qochishga intiladi.

2.2 Evfemizmlarning mavzu guruhlari

Evfemizmlarni tasniflash asosida, ularni sotsial tabiatga ⁴⁶ qarab quyidagi evfemizm turlariga bo‘lish mumkin:

- 1) Milliy adabiy tilning umumqo‘llanuvchi evfemizmlari;
- 2) Sinfy va professional evfemizmlar;
- 3) Oilaviy – maishiy evfemizmlar.

⁴⁶ Ларин Б.А. “Об эвфемизмах” Проблемы языковедения Л., 1961

Evfemizmlarning shakl va ma`no xususiyatlariga ko`ra g`arb va turk tilshunoslari tarafidan tasniflangan. Turkiy xalqlar orasida ushbu sohada ilk tadqiqotlar olib borganlardan biri turkman tilshunosi S.Altayev(1955)dir. Altayev yoqlagan doktorlik ishida evfemizmlarni quyidagi shaklda o`rganib, tasniflagan:⁴⁷

A) Xalqning yaratuvchanlik faoliyati natijasida vujudga kelgan evfemizmlar:

- 1.O`lim bilan bog`liq evfemizmlar.
2. Dehqonchilik va chorvachilik bilan bog`liq evfemizmlar.
3. Jinslarga aloqador evfemizmlar.
4. Maqol va iboralarning evfemiztik xususiyatlari.

B) XIII-XIX asrda xalq tilidan joy olgan evfemizmlar.

- 1.O`limga bog`liq bo`lgan diniy tasavvurlar natijasida vujudga kelgan evfemizmlar.
2. Inson a`zolariga asoslangan evfemizmlar.
- 3.Nazokat, odob va axloq qoidalariga asoslangan metaforik(majoz) evfemizmlar.

O`zbek tilshunosi N. Ismatullayev 1964-yilda yoqlagan “O`zbek tilidagi evfemizmlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasida evfemizmlarni quyidagicha tasniflab o`rganishni taklif qilgan:⁴⁸

A) Evfemizmlarning qo`llanilishi va ma`no turlari:

- I. Tabuga asoslangan evfemizmlar: a) mifologik tushunchalarni nomlashda qo`llaniladigan evfemizmlar.b) zaharli hashoratlar, ilon va boshqa hayvon nomlariga nisbatan qo`llaniladigan evfemizmlar.d) yirtqich hayvon nomlariga nisbatan qo`llaniladigan evfemizmlar.e) kasallik nomlari uchun qo`llaniladigan evfemizmlar. f) erkak va ayol

⁴⁷ Алтаев, С. 1955 Эвфемизмы в туркменском языкеб Ашхабад

⁴⁸ Исмагуллаев, И. 1964 Хозирги узбек тилида эвфемизмлар Тошкент.1963

munosabatlariga nisbatan qo'llaniladigan evfemizmlar.g) ayollar tilida evfemizmlar.

II. Irim sirimlarga asoslangan evfemizmlar.

III. Jamiyatda ayib hisoblangan, qo'pol so'zlar o'rniga qo'llaniluvchi evfemizmlar.

- a) Ayollarning uzurlik holatlari (homiladorlik, xayz payti) bilan bog'liq evfemizmlar.b) oila ichidagi munosabatlarni ifodalashda qo'llaniladigan evfemizmlar. d) o'lim bilan bog'liq evfemizmlar. e)jinslarga bog'liq evfemizmlar.f) inson organlariga nisbatan qo'llaniladigan evfemizmlar. g) kiyim kechaklar bilan bog'liq evfemizmlar.h) doctor va tibbiyot tilida qo'llaniluvchi evfemizmlar.i) hojatxona, vanna va boshqa joy nomlariga nisbatan qo'llaniluvchi evfemizmlar.

IV. So'zlashuv tilida va diniy maqsadlarda qo'llaniladigan dialektik evfemizmlar.

V. Uslubiy evfemizmlar.

VI. Diplomatik tilda qo'llaniladigan evfemizmlar.

VII. Evfemizmlarning tilni boyitishdagi va ko'pma`nolilik xususiyatini namoyon etishidagi ahamiyati.

- a) Lug`atdagi so'zlarning ortishida evfemizmlarning o'rni.b) ko'pma`nolilik va evfemizm.c) evfemizm manbalari.d) otlardan yasalgan evfemizmlar.f) sifattan yasalgan evfemizmlar.e) sonlardan yasalgan evfemizmlar. g) olmoshlardan yasalgan evfemizmlar.h) fe'llardan yasalgan evfemizmlar.i) iboralardan yasalgan evfemizmlar.⁴⁹

Ozarbayjon tilshunosi Hosay Mahmudog`lu Jabborov 1972-yildagi doktorlik dissertatsiyasida evfemizmlarni quyidagicha o'rgangan.⁵⁰

⁴⁹ TAED 29, 2006, 69-93 Güngör.A: Tabu-Ortmece (Euphemism) Sozler Uzerine

⁵⁰ Джаббаров Хасай Махмуд Оглы, 1972 Табу и эвфемизм в азербайджанском языке (Кандидацкий диссертация), Баку.

A) Tilshunoslikda tabu va evfemizmlarning tushunilishi.

1. Tabu va evfemizmlarning tarixiy analizi.
2. Tabuning til vositalari orqali paydo bo'lishi sabablari va evfemizm yordamida qo'llanilishi.
3. Tabu va evfemizmlarning tilning tarixiy rivojlanishiga munosabati.
4. Evfemizmlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati.

A) Evfemizmlarning paydo bo'lish yo'llari.

1. Leksik(so'z) yo'l bilan.
2. Frazeologik yo'l bilan.
3. Grammatik yo'l bilan.
4. Evfemizmlarning badiiy matnlarda qo'llanilishi bilan.

A) Evfemizmlarning uslubiy xususiyatlari.

1. Farqli uslublarda qo'llaniluvchi evfemizmlar.
2. So'zlashuv tilida qo'llaniluvchi evfemizmlar.
3. Badiiy tilda qo'llaniluvchi evfemizmlar.

1973- yilda Qozoq tilshunosi A.K. Ahmedov doktorlik dissertatsiyasida evfemizmlarni adabiy san`atlar vositasida paydo bo'lish yo'llari haqigda yozgan:⁵¹

1. Örtmecel eğretilme- evfemistik metafora
2. Örtmecel duzdeğişmece- evfemistik metonimiya
3. Örtmecesel kapsamlayış -evfemistik sinekdoha
4. Örtmecesel sembol –evfemistik simvol
5. Örtmecesel ironi -evfemistik ironiya
6. Örtmecesel acımlama-evfemistik parafraza
7. Söz öbeklerinden oluşan örtmece
8. Adıl soylu örtmece

⁵¹ Ахметов Ә., 1995 Т.ркі тілдеріндегі табу мен эвфемизмдер, «ҒЫЛЫМ», Алматы

9. Diğ er dil unsurlarından oluř an örtmece- boshqa til unsurlaridan shakllangan evfemizmlar.

2.2.1”O’lim” semasi bilan bog`liq evfemizmlar

Tilimiz asrlar mobaynida shakllangandir va bugungi kunda qo`llaniladigan so`zlarning aksariyati qadimiy dunyoqarashlarni aks ettiradi. Insonlar ba`zan bir so`zni tilga olish, uni o`ylashning qo`rqinchli bir narsani keltirib chiqarishi mumkin degan xavotirda yashaydilar. Biz ushbu ishimizda ana shu so`zlar haqida to`xtalamiz.

Insoniyatning eng asosiy qo`rquvlaridan biri o`limdir. O`lim evfemizmining eng muhim qismlaridan birini tashkil etadi. Condon, davomli o`lim bilan yuzma yuz keladigan kasalxonalarda davosiz, o`limga yakunlanuvchi kasalning kartasida DNR yozilganini, bu esa Do Not Resuscitate(oyoqqa turmaydi, hayot belgilari yo`q) ma`nosida qo`llanilishini ta`kidlab o`tgan.⁵² O`lim bilan juda ko`p qarshilashgan joylarda ham o`lim so`zini qo`llashdan qochadilar.

O`lim so`zini tushuntirishda qo`llaniladigan evfemizmlar

Turkchada *ölmek* o`lmoq so`zi o`rnida qo`llaniladigan ba`zi evfemizmlar:

1. *Emrihak vaki olmak*
2. *ahiret yolcusu olmak*
3. *ecel řerbetini icmek*
4. *günüdolmak*
5. *ömrü vefa etmemek*
6. *ömiir defterini kapatmak*
7. *vadesi dolmak, vadesi gelmek, vadesi tamam olmak,*
8. *adres deđiřtirmek*

⁵² Condon John C. 2000; Kelimelerin Buyulu Dunyası (Ceviren: Murat Ciftkaya), İnsan Yayınları, İstanbul, 107.

9. *ahrete intikal etmek, sonsuzluğa intikal etmek,*
10. *dünyasını değiştirmek*
11. *dar-ı bekaya irtihal etmek*
12. *dünyaya veda temek*
13. *ebediyete göcmek*
14. *can borcunu ödemek*
15. *ruhunu teslim etmek*
16. *dünyaya gözlerini kapamak, gözlerini yummak*
17. *toprak olmak*
18. *Hakka yürümek*
19. *rahmet-i rahmana kavuşmak, rahmetlik oldu*
20. *ruhunu teslim eylemek*
21. *son nefesini vermek*
22. *vefat etmek,*
23. *yaşamını yitirmek/ kaybetmek*
24. *yıldızı kaydı*
25. *ömür bıraktı*
26. *iki eli yanına gelmek*
27. *son uykusuna yatmak*
28. *öbür dünyaya gitmek,*
29. *can vermek, canı çıktı, canını Verdi*
30. *kısmeti idi*
31. *emanetini Verdi*
32. *namazı kılınmak*
33. *talihini ağırlaştı*

Umr tilash soʻzlari

Hayotda birovning oʻlimi haqida gapirishimiz kerakligida yoki yashayotgan kishini oʻlgan bir inson bilan qiyoslash kerakligida uzoq umr tilash soʻzlari aytilishiga guvoh boʻlamiz. Masalan:

1. *Yaşibenzemesin-* yoshi oʻxshamasin. U yosh oʻldi, Tangri ushbu bolaga uzoq umr bersin.
2. *Allah gecinden verdi.* Birovni oʻlimi haqida gapirish kerakligida uzoq umr tilagi, koʻp yasha.
3. *Allah ömürler versin.* Uzoq umr koʻrishingizni tilayman.

Oʻlganni bezovta qilmaslik uchun qoʻllaniladigan evfemizmlar

Oʻlgan insonning yashayotganlarga zarar berishidan qoʻrqiladi. Anadoluda mashhur boʻlgan” hortlak hikayeleri” koʻp insonlarda qoʻrquv hissini uygʻotgan.

Koʻp insonlar mozordan bir oʻzlari oʻtishni xohlamaydilar. Ayniqsa, kech boʻlishi bilan bu ish maʼlum bir jasorat talab qiladi. Oʻlgan insonlarni dunyodagi voqealardan xabardor boʻlgani, oʻzi haqida aytiladigan gaplarni eshitadi deb ishoniladi. Shu sababli oʻlgan kishini rohatsiz etadigan soʻzlar aytish, ularga yoqmaydigan ishlar qilish notoʻgʻri hisoblanadi. Freudning “ Oʻliklar yashayotganlar ustidan hukm chiqarishlariga ishonamiz. Faqat oʻliklarni ayni paytda dushman hisoblanganliklarini aytsak bunga hayratlanasiz” kabi soʻzlari bunga ishoradir.⁵³

1. *Toprağı bol olsun.* (musulmon boʻlmagan kishi) Yaxshi inson edi, rohatlikda uxlasin. Bu yerda mozorning baʼzi yomon niyatli kishilar yoki yovvoyi hayvonlar tarafidan ochish qoʻrquviga ishora qilinmoqda.⁵⁴

⁵³ Freud.S. 1947 Totem ve Tabu (Ceviren: Niyazi Berkes), Milli Eğitim Bakanlığı Yayınları, Ankara. 84-85.

⁵⁴ Aksoy 1984 Ömer Asım, Atasözüve Deyimler Sözlüğü I-III, Turk Dil Kurumu Yayınları, Ankara 910.

2. *Süngüsü Depreşmesin/ Toprağına ağır gelmesin.* O'ldi, ketti, ruhi bezovtalanmasin. Ba`zi hududlarda “ *Toprag`ına ses gitmesin*” shaklida ham uchraydi.⁵⁵
3. *Kemikleri sızlamak.* O'likni huzuri qochishi, rohatsiz bo'lishi.⁵⁶

Ta`ziya uchun qo'llaniladigan evfemizmlar

Taziya o'lgan insonning yaqinlariga o'lim haqida gapirilmaydi. O'lgan inson haqida “*rahmetli*” deb gapiriladi. O'lgan insonning yaqinlariga “*Başınız sag` olsun*” deb uzoq umr, sog`lik tilanadi. Ba`zi so'lar hududlarga ko'ra farqlanadi. Masalan, Konya va Burdurda o'lgan insonning juftiga “*Allah cenette kavuşursun*” deydilar.

Quyidagi ta`ziya uchun qo'llaniladigan evfemizmlarga misollar keltiramiz:

1. *Sizler(size) ömür.* U o'ldi, siz sog` bo'ling.
2. *Başin/başınız sağ olsun.* Juda xafa bo'ldim, sen sog` bo'l, Olloh sabr bersin.
3. *Allah acısını unutturmasın.* Olloh ushbu dardni unuttiruvchi yana bir dard bermasin.
4. *Allah rahmet eylesin.* O'lgan insonni Tangri marhamati ostida bo'lishini tilash.
5. *Allah taksiratini affetsin.* Olloh o'lganlarni gunohlarini kechirsin.

Himoyalash maqsadida qo'llaniladigan evfemizmlar

Ba`zan insonlar biron bir so'zni aytish u yerda tursin xayoldan o'tkazishdan qo'rqadilar, xavotirlanadilar. “ *Aklıma gelen, başıma geldi*” iborasi ham juda aktual bu borada. Aytilishi kerak bo'lmagan bir gap aytilsa, “himoyalovchi” deb tasavvur etiladigan ifodalarni aytishga harakat qiladilar.

1. *Ağzı kurusun.* Falokat tilaganlarga qarshi qo'llaniladi.⁵⁷

⁵⁵ Pala İskender 2002, İki Dirhem Bir Cekirdek, LM Yayınları, İstanbul 190-191.

⁵⁶ Yurtbaşı Metin 1996; Ornekleriyle Deyimler Sozluđu, Ozdemir Yayıncılık, İstanbul. 327.

2. *Allah etmesin/ vermesin/ göstermesin.* Tilaymanki bunday narsa bo‘lmasin.
3. *Allah bağışlasın.* Tangri yomon niyatli kishilar nazaridan asrasin.⁵⁸
4. *Allah selamet versin.* Tangri sizni balo qazodan asrasin.⁵⁹
5. *Dağlara taşlara.* Falokat hammamizdan yiroqda bo‘lsin.⁶⁰
6. *Dilime toş toprak.* “ollohim meni asra” ma`nosida Anadoluda ko‘p qo‘llaniladi.⁶¹
7. *Evlere şenlik.* Tilaymanki hech kimni boshiga shunday falokat kelmasin.⁶²
8. *Iyi saatte olsunlar.* Jin va parilar haqida gapirilganda qo‘llaniladi.⁶³
9. *Kırk bir kere maşallah.* Ming nazardan asrasin.⁶⁴
10. *Üstume iyilik sağlık.* Olloh asrasin.⁶⁵
- 11.

2.2.2 Kasallik nomlari bilan bog`liq evfemizmlar

Kasallik olib kelgan noxushlik va xosiyatsizlikni uzoqlashtirish uchun xalqda ko‘pgina iboralar, so‘zlarga murojaat qilinadi. Ayniqsa, shunday holatlarda, *Allah göstermesin, Allah başa vermesin*(Xudo ko‘rsatmasin), *Allah dert verip derman aratmasın*(Dardini bergan shifosini ham bersin), *Duşman başına, evlerden uzak, Kaf Dağının arkasına* kabi iboralar qo‘llaniladi. Hatto o‘lim, kasalliklar haqida gapirilayotganda tinglovchilarni ushbu holatlar bilan yuzma- yuz kelmasliklari uchun taxtaga urib orqasidan *dağlara taşlara, şeytan kulağına kurşun* kabi har xil ifodalar qo‘llaniladi.

⁵⁷ TS Türkçe Sözlük 2005; TDK Yayınları, 10. Baskı, Ankara, 35.

⁵⁸ TS Türkçe Sözlük 2005; TDK Yayınları, 10. Baskı, Ankara, 77

⁵⁹ Yurtbaşı Metin 1996; Örnekleriyle Deyimler Sözlüğü, Özdemir Yayıncılık, İstanbul 37.

⁶⁰ Aksoy Ömer Asım 1984; Atasözü ve Deyimler SözlüğüI-III, Turk Dil Kurumu Yayınları, Ankara 585.

⁶¹ Onay Ahmet Talat 1993; Eski Turk Edebiyatında Mazmunlar, Turkiye Diyanet Vakfi Yayınları, Ankara 246.

⁶² Aksoy Ömer Asım 1984; Atasözü ve Deyimler Sozluđu I-III, Turk Dil Kurumu Yayınları, Ankara 650

⁶³ TS Türkçe Sözlük 2005; TDK Yayınları, 10. Baskı, Ankara. 1006

⁶⁴ TS Türkçe Sözlük 2005; TDK Yayınları, 10. Baskı, Ankara. 1160).

⁶⁵ Yurtbaşı Metin 1996; örnekleriyle Deyimler Sozluđu, Ozdemir Yayıncılık, İstanbul 485.

Kasalliklar bilan bog`liq evfemizmlarni quyidagicha tasniflab o`rganib chiqamiz: Kasalliklar, davosiz yoki davosi uzun kechadigan kasallik nomlari, jamiyat tarafidan uyat , qo`pol deb qabul qilingan kasalliklar va alohida holatlarga asoslangan nomlanishlar, qisqa muddatli, yengil, davosi bor bo`lgan kasallik nomlari.

Ushbu tasniflarda *Türkiye türkçesi ağızları sözlüğü, Derleme sözlüğü* kabi lug`atlar manba sifatida qabul qilingan.⁶⁶

Kasallik organizmda bir necha o`zgarishlarni kelib chiqishi bilan sog`liqni buzilishi holatidir. Qadimda jamiyatda kasalliklar sababi asosan odamlar iste`mol qiladigan suv, oziq ovqat va havodagi infeksiyalar bilan bog`liq bo`lsa, hozirgi kundagi zamonaviy jamiyatda esa yuqumli kasalliklar o`rnini surunkali kasalliklar egallagan, degenerative kasalliklar, ruhiy kasalliklar va saraton o`limga sabab bo`luvchi kasalliklar hisoblanadi.⁶⁷

Turk tilida kasallik so`zi o`rniga kasallikning xususiyatiga ko`ra har xil so`zlar qo`llanilmoqda: *araz, dert, maraz, maraza, cor, illet, sokellik, sayrılık, zort, yiyik*; davosiz kasalliklar *alıcı, can alıcı, alıfatma, ölet*; epidemik kasalliklar uchun *kırgan (gıran, gırgan) kırgın, kara kıran, salım, orta ağrısı*; yuqumli ammo davosi bor kasalliklar *gezargı veya gezeen, sepici, turnık*, uzoq davom etuvchi kasalliklar uchun *ingıraz, karaağrı*, yengil kasalliklar uchun *miringirin* kabi evfemizmlar qo`llaniladi. Hozirda saraton, OITS, (H5N1) parranda grippi kabi o`limga sabab bo`luvchi kasalliklarda, kasallik nomini o`rniga *ölümcül hastalık*(o`lim bilan yakun topuvchi kasallik), *kötü hastalık*(yomon kasallik), *amansız bir hastalık*(shafqatsiz kasallik)

⁶⁶ Turk Dil Kurumu, Türkiye Türkçesi Ağızları Sözlüğü <http://tdkterim.gov.tr/ttas/>

⁶⁷ Ayşe Tekin, Sağlık-Hastalık Olgusu ve Toplumsal Kökenleri (Burdur Orneği), Suleyman Demirel Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Sosyoloji Anabilim Dalı Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Isparta, 2007, s. 28.

Davosi yo‘q yoki davosi uzoq kechadigan kasallik nomlari. Oldingi zamonda ko‘p insonlarning o‘limiga sabab bo‘lgan epidemic kasalliklar o‘rganilib zamonaviy tibbiyot nazorati ostiga olingan.⁶⁸ Bu kasalliklardan biri *verem* sildir. Sil kasalligidan o‘lgan insonlarga *ince hastaliktan öldü* deyilgan. Qadimda “kara olum” qora o‘lim nomi bilan yuritiladigan yuqumli kasalliklardan biri *veba* (vabo) dir. Vabo so‘zi o‘rniga qo‘llaniladigan evfemizmlar: *kırran, yumrucak, baba*. *Baba* so‘zi yana badduoda ham qo‘llaniladi: *Elinde kolunda babalar cıksın* kabi.

Kirli suvlarda, bu suvlar bilan to‘yingan sabzavotlarda bo‘lgan o‘rtacha 3 hafta kechadigan, isitmali xavfli oshqozon kasalligi hisoblangan *kara humma* nomi bilan ham qo‘llaniluvchi *tifo*(tif) uchun xalq orasida har xil evfemizmlar qo‘llaniladi: *ağrıter, yatalak, terecik, terleme, terletme, yorgaca, karayatalığ~ karayatılıg, ter hastalığı*

Hozirgi kunda juda ko‘p tarqalgan davosiz kasalliklardan hisoblangan *kanser*(saraton) kasalligi xalq orasida: *incitmebeni, dokunmabana, yeyilme, yiyici yara* kabi evfemizmlar bilan qo‘llaniladi.

Jigar kasalligi hisoblangan ba`zi hollarda o‘lim bilan yakun topuvchi kasallik sirrozdır. Xalq orasida siroz bilan og`rigan inson haqida gapirganda *Ataturkun hastalığ*ından deyiladi.

Tibbiyot tilida variola va smallpox deb nomlanuvchi *çiçek*(suvchechak) kasalligi qadimda juda ko‘p tarqalgan yuqumli, epidemic kasallik hisoblangan. Yuzga kichik toshmalar chiqishi kasallikni o‘ziga xos belgisi hisoblangan. Shuning uchun xalq orasida ushbu kasallik *çiçek*(gul) deb nomlangan. Ushbu kasallik bilan og`rish cicek cikarmak deyiladi. Yana ushbu kasallikni *donanma, bezeme, cibarı, cecek* kabi evfemizmlari bor.

⁶⁸ Ayşe Tekin, *Sağlık-Hastalık Olgusu ve Toplumsal Kokenleri (Burdur Orneği)*, Suleyman Demirel Universitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Sosyoloji Anabilim Dalı Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Isparta, 2007, s. 50.

Teri kasalligi hisoblangan cuzzem kasalligi o‘rniga xalq orasida *baba, cudam, donuk, kötü yara, yenirce* kabi evfemizmlar qo‘llaniladi.

Qo‘rquv, irim-sirimlarga asoslangan kasallik nomlari

Miya funksiyasi buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan *epilepsiya, sara* (tutqanoq) kasalliklari xalq orasida jindan va sehr-u jodudan paydo bolgan kasallik deb ishoniladi. Ushbu kasallik uchun quyidagi evfemizmlar qo‘llaniladi: *al basma, bayılma, cin carpması, dışarlık, eser ~ eserge, koyanavrul, turalga ~ tutak ~ tutalık ~ tutar ~ tutarak ~ tutarı ~ tutarık, uğrak, yellenme*.

Asosan yosh chaqaloqlarda D vitamini tanqisligi bilan bog‘liq, bolani bezovta bo‘lishiga sabab bo‘lgan *rasitan*(rahid) kasalligi xalq orasida “*değistirme*” (o‘zgartirish) evfemizmi bilan qo‘llaniladi. Shayton bolani o‘zgartirganiga ishoniladi. Shuning uchun shaytonni xonadan yo‘qotish uchun bolaning xonasiga qizil go‘sht yoki supurgi qo‘yilar ekan.

Homiladorlik davrida isitma kasalligi hisoblangan *lohusalik hummasi* yoki *albasti, alkarısıdır*. Bu holatda homilaga yomon ruhlari ta‘sir etadi deb ishoniladi. Ba‘zan homilador ayol yolg‘iz qolganida pari -qizlar kelib jigarini oladilar va bu holatda homilani *albasar* deb ishoniladi. Homilador ayol jigarini suvga tashlasa, ayol o‘ladi deb ishonilgan.⁶⁹ Ushbu kasallik *karabasma, karabayan* ham deyiladi.

Jamiyat tarafidan ayib, qo‘pol deb qabul qilingan kasallik nomlari.

Ushbu tur kasalliklar xalq orasida uyat va odobga zid hisoblangani uchun evfemizmlar yordamida ifoda etiladi.

Sifiliz xalq orasida *frengi, gonore* esa *bel sog‘uklug‘u* nomlari bilan keng tarqalgan. XVI asrda butun Yevropani ta‘siri ostiga olgan kasallik bo‘lgani uchun frenk(Fr. Freng “lotin irqidan bo‘lgan kishi”) so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Xalq orasida ushbu kasallik *kötü yara, kulleme, şerbetleme, yenirce, kif, secime*

⁶⁹ Abdulkadir İnan, *Tarihte ve Bugün Şamanizm, Materyaller ve Araştırmalar*, Turk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara, 1986, s. 171.

evfemizmlari bilan qo‘llaniladi. Gonore kasalligi xalq orasida *bel so‘guklu‘gu*, *akarca* kabi evfemizmlar bilan qo‘llaniladi.

Ishol (ich ketishi, buzilishi) kasalligi *surgun*, *oturuk*, *babisa ~babitsa*, *bozgun*, *ic surme*, *circir ~ ciricirin*, *soggunluk*, *amel*, *tirlak ~ torlek* evfemizmlari bilan qo‘llaniladi. Kabizlik(gemoroy) xalq orasida *peklik ~ beklik* kabi evfemizmlar bilan qo‘llaniladi.

Qisqa kechadigan, yengil, davosi bor kasalliklar.

Ciban kasalligi uchun xalq orasida quyidagicha evfemizmlar qo‘llaniladi: *adi batasi*, *köstebek*, *akarca*, *başlı*, *başsız*, *bulgur puskurtmesi*, *kara mubarek*, *gara gabarcuk*, *morca*, *kuş kuyru‘gu*, *tilkiburnu*, *gelincik*, *go‘gundurme lalesi*, *güzellik*, *haspa*, *incibar*, *yumurcak*, *it memesi*, *kedi memesi*, *kedi bici‘gi*, *kedi daşa‘gi*.

Tananing har xil joylariga chiqqan yaralar uchun har xil evfemizmlar qo‘llaniladi: *a‘gri*, *bakırbasma*, *datlıcak*, *karataban*, *suluca*, *tavuk götü*.

2.3 Difemizmlar va ularning qo‘llanilish sohalari

Tilda borliqlarning (hayvon, narsa buyum, inson va b) va kasallik nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan yuqorida keltirib o‘tgan misollarga teskari hisoblangan “*kötü adlandırma*” yomon nomlash, grekcha “*dys*” yo‘q, yomon va “*pheme*” nutq so‘zlaridan hosil qilingan “*difemizm*” tushunchasi mavjuddir.

Dunyoning bir necha o‘lkalarida bolalarga ism berilganda chiroyli ismlar yomon ruhlarning diqqatini tortadi deb tasavvur qilingan. Siyamda, Tonkingda shu sababli bolalarga chiroyli ism berish o‘rniga shaytonlarning, yomonlik ruhlarining ismlarini, nomlarini qo‘yishar ekan, masalan, Domuz, Yaramaz. Yana ushbu hodisani turkiy xalqlarda, qozoq va oltoy xalqlarida kuzatish mumkin. “*Tozak*”, “*Kork*”, “*Itbay*”, “*Itibay*”, “*Italmaz*”, “*Tezekbay*”, “*Yilan*”, “*Seytan*”, “*Manas*” dostonida nomi keltirilgan “*Bokmurun*” kabi ismlar turkiy

xalqlarda keng tarqalgan. Kumuklarda qiz bolaning ismi sifatida “Gerekmez”, “Gocuk”(erkak kishi ismi “it” ma`nosida) kabi yomon ma`noli isimlar qo`yilgan.⁷⁰ Yana Oyrotchada Cickan sichqon, Dyitu yomon hidli, Oltin O`rda xoni O`zbekxonning qizi ismi It Kucucek, Shorjada Poktugkiris, Hokoschada Colbanah isimlari qiz bola ismlari sifatida keng tarqalgan.⁷¹

Professor Doktor Tüncer Gülensoy “ Turk kishi nomlarining til va tarix nuqtayi nazaridan ahamiyati” nomli maqolasida turklarda “ Hafiye”, “Hurda”, “Ibish”, “Meymenet”, “Nanoş”, “Porsel”, “Sefore” va boshqa isimlar xalq orasida yomon, noxush tuyg`ularni tug`diradi deb yozadi.⁷²

Saljuqiylarning mashxur davlat arbobining ismi ham Saadettin Kopek(it ma`nosida) bo`lgan, ushbu barcha difemizmlarning tabuga asoslanganligi, yomonlik ruhlarini shaxsga zarar berishini oldini oladi degan tasavvurdan paydo bo`lgan.

Kasallik nomlaridan “*adi batasi*” Köstebek, cibani, kemik veremi, “adi belirsiz” verem, “ag`iz eskisi” nezle, “batak” zakelcenp, “*budala*” esdan chiqish, jinnilik alomatlari, “*calık*” bir a`zoning ishdan chiqishi, falaj, “capit hastalig`i” xolera, “*kirli paçavra*” xolera, “*tersi bozuk*” shol, “*tikizi kirik*” ko`r.

Hayvon nomlari bilan bog`liq difemizmlar: “*adibatasıca*” chayon, “*karadul*” o`ldiruvchi o`rgimchak turi, “*kötü hayvan*” cho`chqa, “*bitli*” bir

⁷⁰ А. А. Сативалов; К вопросу о личной ономастика. Кумков/ ХУР; Советское языкознание, том второй, Ленинград, 1936, 15-96-стр.

⁷¹ Rasonyi, Laszlo 1963, Turklukte Kadın Adları, Turk Dili Araştırmaları Yıllığı, Belleten, Turk Tarih Kurumu Basımevi, II. Baskı 1988, Ankara, s. 75-79).

⁷² GÜLENSOY, Tüncer, 1999 ‘Türk kişi Adlarının Dil ve Tarih Açısından Önemi’ Turk Dili, S. 565, Ocak, Ankara

yoshdagi cho‘chqa bolasi, “*övey ana*” chaqqanida juda achitadigan ingichka hashorat.

Yuqorida ko‘rganimizdek inson, hayvon, kasallik nomlari bilan bog‘liq evfemizmlar bilan birga, qo‘pol, nohush tasavvurlarni aks ettirgan nomlash, ya‘ni difemizmlar ham mavjuddir. Difemizmlar bolalar, hayvonlar, kasallik va boshqa tushunchalar quloqqa hush kelmaydigan isimlar, nomlarni berish hodisasi turkiy xalqlarning tarixidan kelgan *shamanism* izlarining hali ham jamiyatda yashashini ko‘rsatuvchi yomon ruhlarning, jin, alvasti va boshqa shu kabi borliqlarning yomonliklaridan himoyalaniş uchun aldash maqsadida berilgan nomlardir.

Tushunchani ma‘lum bir jihatdan “qog‘ozga o‘ragan” holda ifoda etish, aldash, chalg‘itish maqsadida bir tushuncha o‘rniga boshqa birini qo‘llash ham difemizm sanaladi. Masalan, tijorat sohasida iste‘molchilarni jalb qilish uchun ularni uzoqlashtirmaslik uchun turklar “*faiz*” foiz so‘zi o‘rniga “*kay payi*”, “*gecikme zammi*”, “*fiyat ayarlamasi*” narxning chegaralanishi kabi difemizmlar qo‘llaniladi.

“*Kötü adlandırma*” yomon nomlash terminini qo‘llagan turk olimlaridan biri Kerim Demirci shunday deydi:” Difemizm tushunchasini evfemizmning bir turi sifatida qabul qilib o‘rganish kerak. “*Iyi adlandırma*” yaxshi nomlashni *örtmece*(o‘raglan ma‘nosida) evfemizm deb qabul qilar ekanmiz, “*kotu adlandırma*” yomon nomlash ham *örtmece*, evfemizm deb olishimiz kerak. Birinchisida nomlash pozitif, musbat, yaxshi bo‘lsa, boshqasida negatíf, manfiy, yomondir.

Difemizm terminiga yana quyidagicha ta`rif berilishi mumkin: “Difemizm oldindan neytral hisoblangan tushunchani unga salbiy ma`no yuklash uchun yoki nutqni ta`sirchanligini oshirish uchun qo‘qol, nohush ifodalashdir.”⁷³

Difemizm terminiga sinonim sifatida “*Kakofemizm*” termini ham qo‘llaniladi.⁷⁴

II BOB yuzasidan qisqa xulosalar. Evfemizmlarning nutqda qo‘llanilish mohiyatlarini o‘rganib, ularning nutqda ishlatilishi maqsadlari haqida ham to‘xtalib o‘tdik. Yuqoridagi tabu haqidagi bilimlarga asoslangan holda evfemizmlarning semantikasiga ko‘ra turlarga ajrattik. Turkiy tilshunos olimlar tarafidan tasniflangan evfemizm turlarini, ularni o‘zaro farqliliklarini, o‘xshash jihatlarini ko‘rib chiqdik. Evfemizmlar keng qo‘llaniladigan temalarni ya`ni o‘lim va kasallik temalarini tahlil etib chiqdik. Ularni o‘z ichida kichik guruhlarga ajratib misollar yordamida evfemizmlarni ochiq lab berdik. Evfemizmning bir turi sifatida qabul qilingan lekin, semantikasiga ko‘ra evfemizmga qarama qarshi ma`noli so‘zlar difemizmlar haqida tushuncha berib o‘ttik.

⁷³ Internet. Vikipediya.

⁷⁴ Internet. NSE.

XULOSA

Turk tilida tabu va evfemizmlarni o`rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tabu va evfemizmlar til lug`at tarkibining, jumladan turk tili leksikasining ham alohida qatlami hisoblanadi. U xalqning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlari, mentaliteti bilan bog`liq holda mavjud bo`ladi. Tabu va evfemizmlar madaniyat va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik tushunchalardir.
2. Tabu evfemizmlar tilshunoslikda nisbatan kam o`rganilgan mavzulardan biridir. Ushbu mavzuni turkiy tilshunos olimlar va rus olimlari tadqiq qilganlar. Turk tilshunosligida esa tabu va evfemizmlar butun imkoniyatlariga ko`ra chuqur o`rganilmagan.
3. Diniy e`tiqodlarning, madaniyatlarning, tillarning farqlanishiga qaramay ko`pgina xalqlarning va xususan turkiy xalqlarning mifologik qahramonlari bir biriga o`xshaydi va ularni nomlashda tabuga asoslanganligidan ularni ko`pida evfemizmlar mavjuddir. Totemistik e`tiqod ta`sirida paydo bo`lgan taqiqlar Amerika, Osiyo, Avstraliya, Yevropa qit`alarida yashagan xalqlar madaniyatidan o`rin egallagan.
4. Tabu va evfemizmlar diniy e`tipoddan paydo bo`lishi bilan birga jamiyatdagi odob ahloq qoidalari asosida shakllangandir.
5. Tabu va evfemizmlar tilning lug`at boyligini oshiruvchi unsurlardan biridir. Ular so`zlarni ma`nosini o`zgartirishda, kengaytirishda muhim rol o`ynaydi.
6. Evfemizmlar asosan insoniyat munosabati, madaniyati shu va boshqa jamiyat hodisalarida qo`llaniladi. Evfemizmlar uzoq tarixga borib taqaladi. Evfemizim tushunchasi tabu tushunchasi bilan chambarchas

bog`liqdir. Biz tabuni diniy tabu va sotsial taqiqlar misolida ko`rib chiqdik.

7. Suhbatda nizolardan qochishga harakat qilish, suxbatdoshda suxbat chog`ida noqulay sharoit tug`dirmaslik, ishni niqoblamoq, bekitish kerak bo`lgan so`zni tariflashda umumlashtirish, ma`lumotni yashirmoq, shifrlamoq evfemizmlarning keng qo`llanilishi kabi bir necha omillar bilan bog`liq bo`ladi.
8. Evfemizm jarayonining o`ziga xosligi gapirilayotgan narsa qo`pol, noqulay so`z deb baholanishi, so`zlovchi vaziyatni yumshoqroq ibora tanlab niqoblab gapirishida ko`rinadi. Evfemizmning qo`llanishi nutq usuliga bog`liq bo`ladi.
9. Evfemizmlar turli olimlar tomonidan turlicha mavzu guruhlariga bo`lingan. O`rganish natijasida quyidagi tasnifni keltiramiz.
 1. Ba`zi jismoniy jarayon va holat bilan bog`liq evfemizmlar
 2. Kasalliklar va o`lim bilan bog`liq evfemizmlar
 3. Turli xil millatlar va sotsial guruhlar o`rtasidagi munosabatlar bilan bog`liq evfemizmlar
 4. Kasbning ba`zi turlar bilan bog`liq evfemizmlar
 5. Diplomatiya va siyosat bilan bog`liq evfemizmlar
 6. Diniy tushunchalar bilan bog`liq evfemizmlar
 7. Joy nomlari bilan bog`liq evfemizmlar
 8. Jinslar o`rtasidagi munosabat bilan bog`liq evfemizmlar
10. Evfemizmlarning qo`llanilish funksiyalariga suhbat davomidagi noxushlik yoki o`zaro mojarolardan qochish, nisbatan o`ziga xos, ijtimoiy ma`noda so`zlarni niqoblash, so`zlovchi gapirgan gapini faqat bitta o`zigagina tushunarli bo`lishiga harakat qilish kabilar kiradi.
11. Difemizmlar evfemizmning bir turi sifatida nutqimizda tushunchani ma`lum bir jihatdan “qog`ozga o`ragan” holda ifoda etish, aldash, chalg`itish, bir

so`z o`rniga boshqa birini ishlatish hamda nutqning ta`sirchanligiga erishish maqsadida qo`llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

O‘ZBEK TILIDAGI ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov.I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. Toshkent.2008.
2. Ismatullayev N.Hozirgi o‘zbek tilida efemizmlar. Nomzodlik dissertatsiyasi.Toshkent.1963.
3. Begmatov E.A.Nomlar va odamlar.- T.:Fan, 1966.
4. Omonturdiyev A. O`zbek nutqining evfemik asoslari.Toshkent.1997

RUS TILIDAGI ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алтаев, С. Эвфемизмы в туркменском языке, Ашхабад, 1955
2. Ахмедов, А. К., Табу и эвфемизмы в казакском языке, Алматы, 1973
3. Боровой Л.Б. “Путь слова” М., 1963
4. Видлак С.Н. “Проблема эвфемизма на фоне теории языкового поля” М., 1967
5. Джаббаров Н. М., Табу и эвфемизмы в азербайжанском языке, Баку, 1972
6. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф.дис...канд.филол.наук. Т.1963.
7. Ергазиева Н.И. Взаимосвязь прозвищ табу и эвфемизмов в казахском языке// Ономастика Узбекистана ИЯЛ, Ан Уз ССР. – 1989.
8. Ожегов С.И. «Словарь русского языка» М., 1967
9. Москвин В.П. “Эвфемизмы” М., 1999
10. Мечковская Н.Б. “Магическая функция языка” М., 2000
11. Ларин Б.А. “Об эвфемизмах” Проблемы языковедения Л., 1961

12. Кацев А.М Эвфемизмы в современном английском языке:
Автореф.дис...д-ра филол.наук.-Л.,1977-19с
13. Крысин Л.П. “О понятие социального контроля в процессах речевого общения” М., 1989
14. Сативалов А. А., К вопросу о личной ономастики. Кумков/ХУР;
Советское языкознание, том второй, Ленинград, 1936
15. Черкасова Е.Г. О метафорическом употреблении слов//. – М:1959/ -
16. Пауль Г. “Принципы истории языка” М., 1961

TURK TILIDAGI ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. AHMEDOV Adil, Türki Dilderindegi Tabu men Evfemizmdler, Almatı
1995
2. AKSAN Doğan, Her Yönüyle Dil Ana Çizgileriyle Dilbilim **C. 3**, TDK.
Yay., Ankara 1982
3. AKARSU, Bedia; *Dil-Kultur İlişkisi*, İnkılap Yayınları, İstanbul. 1998
4. AKSAN, Doğan; *Her Yonuyle Dil*, Turk Dil Kurumu Yayınları, Ankara.
1998
5. AKSAN, Doğan; *Her Yonuyle Dil*, Turk Dil Kurumu Yayınları, Ankara.
1998
6. AKSAN, Doğan, Her Yonuyle Dil III, TDK Yay., Ankara, 1990.
7. AKSOY, Omer Asım 1984; *Atasozu ve Deyimler Sozluđu I-III*, Turk Dil
KurumuYayınları, Ankara
8. BİLGİNER Hayriye, “Bati dillerinde ve Türkçede güzel adlandırmalar”,
Türk Dili, S. 598, Ekim 2001,
9. COŞKUN Menderes, Sözüñ Büyüsü Edebî Sanatlar, Dergah Yay., İstanbul
2007

10. DEMİRCİ Kerim, “Örtmece (Euphemism) kavramı üzerine”, Milli Folklor, C. 10, S. 77, Ankara 2008
11. GECEKUŞU Ahmet, Güzel Adlandırma, Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, (Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi), Elazığ 2006,
12. GÜNGÖR Ahmet, “Tabu – örtmece sözler üzerine”, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, S. 29, Erzurum 2006
13. SÖYLEMEZ Ümit, Euphemism as’a Reflection of Culture on Language, Hacettepe Ürniversity İnstitute of Social Sciences,(Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi), Ankara 1993
14. TÜRK DİL KURUMU, Türkçe Sözlük, Ankara 2005
15. ÜSTÜNER Ahat, “Kayseri ve yöresi ağızlarında güzel adlandırmalar”, II Kayseri ve Yöresi Kültür, Sanat ve Edebiyat Bilgi Şöleni 10 – 12 Nisan 2006. Bildiriler, Kayseri 2007
16. FRAZER, J.G., (Cev. Mehmet H. Doğan), Altın Daldının ve Folklorun Kokleri, Payel Yayınevi, İstanbul. 1990
- 17.FREUD, S., 2002, Totem ve Tabu (Cev. K.Sahir Sel), Sosyal Yayınları.
18. Oxford, Ansiklopedik İngilizce- Turkce Sozluk, Sabah Yayınları, 1990.
19. CONDON, John C. 2000; *Kelimelerin Buyulu Dunyası* (Ceviren: Murat Ciftkaya), İnsan Yayınları, İstanbul.
20. FREUD, S. 1947; *Totem ve Tabu* (Ceviren: Niyazi Berkes), Milli Eğitim Bakanlığı Yayınları, Ankara.
- 21.SÖYLEMEZ, Umit 1993; *Euphemism, as a Reflection of Culture on Language (Ortmece: Kulturun Dil Uzerindeki Yansımasi)*, Hacettepe Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yayımlanmamış Yuksek Lisans Tezi, Ankara.
22. İnvan, Abdulkadir, *Tarihte ve Bugun Şamanizm, Materyaller ve Araştırmalar*,
23. Turk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara 1986.

INTERNET RESURSLARI

<http://www.Google.com.tr>

<http://wikipediya.com>

<http://ziyo.uz>

<http://bilinç.com>

[http://referat. Ru](http://referat.Ru)